

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM
VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

*Qol yozma huquqida
UDK 911:33 (575.172)*

KURBANBAEV BAXROM SHUKURULLAEVICH

**XO'JAYLI TUMANINING AGROSANOAT KOMPLEKSLARINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**5A140602 «Geografiya (Umumiy geografiya)»
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Magistratura bo'limi mudiri:
y.f.n. dots. Gulimov A.B.

Geografiya kafedrası mudiri:
g.f.n. dots. Embergenov N.J.

Ilmiy rahbar:
g.f.n. dots. Xodjaeva G.A.

«___» _____ 2018 j.

NUKUS-2018

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I-BOB	TABIÏY SHAROÏT VA TABIIY RESURSLARNING AGROSANOAT KOMPLEKSLARINI RIVOJLANTIRISH MAQSADLARIDA FOYDALANISH	8
	I.1.Tumanning geografik joylashgan o'rni, chegaralari va reliefi	8
	I.2.Tuman iqlim sharoiti	9
	I.3.Yer va suv resurslari	13
	I.4. Yer fondi, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi	16
	I.5.Tumanning qisqacha rivojlanish tarixi	18
II -BOB	XO'JAYLI TUMANINING IQTISODIY RESURSLARI VA UNDA AGROSANOAT SOHALARIDA OQILONA FOYDALANISH YO'LLARI	20
	II.1. Tuman aholisining soni va o'sish dinamikasi, uning agrosanoat kompleksini rivojlantirishga ta'siri	20
	II.2. Aholi tarkibi	26
	II.3. Mehnat resurslari va bandligi	29
	II.4. Tuman transport-iqtisodiy aloqalari va uning agrosanoat kompleksining rivojlanishiga va geografik joylashishiga tasiri.	32
III-BOB	TUMAN AGROSANOAT KOMPLEKSLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	36
	III.1. Agrosanoat kompleksining zarurligi, vazifalari va tarkibi	36
	III.2.Tuman er-suv resurslari, undan qishloq xo'jaligi va agrosanoat komplekslarida samarali foydalanish yo'llari	39
	III.3. Xo'jayli tumanining sanoat sohalarining geografik joylashishi va uning agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasiri	45
	III.4. Xo'jayli tumani qishloq xo'jaligi sohalarining geografik joylashishi va uning agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasiri	49
	XULOSA	62
	ADABIYOTLAR RO'YHATI	67
	ILOVA	73

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui asosiy moddiy ishlab chiqarish sohasidir. Respublika qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va umuman agrar iqtisodiyoti tarmoqlarining markazdan buyruqbozlik asosida boshqarish va rejalashtirish tizimidan, bozor iqtisodiyoti talablari doirasida xo'jalik yuritish tizimiga o'tkazilishi barcha sohalarda keskin o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Nihoyat, boqimandalik kayfiyati yo'qola boshladi, tadbirkorlik va ishbilarmonlik (biznes) yo'lida turgan ko'p to'siqlar olib toshlandi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov takidlab o'tganidek, islohatlarning ikkinchi bosqichida umuman qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuida, jumladan ekin maydonlari tarkibini har bir xududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda eng maqbul ko'rinishiga keltirish yo'li bilan chinakam ilg'or siljishlarga erishish tarkibiy o'zgartirishlar siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Butun qishloq xo'jaligi mashinasozligi tizimini tubdan qayta qurish taminlanmagan. Bu tizim o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va fermer xo'jaliklari mehnatini engillashtirishning mustahkam poydevori, ayni vaqtda mamlakatimiz valyuta balansini to'ldirish buyicha kafolatlangan manba bo'lishi kerak edi¹.

Bugungi kunga kelib respublikamizda etishtiriladigan qishloq xo'jaligi maxsulotlarining 99 foizidan ortig'i nodavlat mulkchiligi asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar zimmasiga to'g'ri keladi. Kup ukkladli agrar iqtisodiyotning shakllanishi uchun zarur meyoriy va huquqiy asoslar yaratildi va ular takomillashtirilmoqda.

Har qanday davlat talim tarbiya sohasining rivojlanishi mamlakatda olib borilayotgan siyosatning olib borilishi bilan chambarchas bog'liq. Shuning

¹ Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий қарор ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. - Тошкент, «Ўзбекистон» 2017. – 13 б.

uchun ham mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947 sonli O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining "2017 -2021 yillarda beshta ustivor yo'nalishlari"¹ning asosiy maqsadi ham mamlakatni har tomonlama yuksaltirish va jahonning etakchi mamlakatlari qatoriga qo'shish hisoblanadi. Ayniqsa harakatlar strategiyasining uchunchi yo'nalishi birinchi bandida Prezidentsimiz Sh.M.Mirziyoev Makroiqtisodiy barqarorlikni yana ham mustahkamlash va iqtisodiy o'sish suratlarini saqlab qolish chora tadbirlari to'g'risida bir qator fikrlarni bildirib o'tganlar². Jumladan ushbu yo'nalishning uchunchi bandida qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va jadal rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalari ekanligini takidlagan.

Tadqiqot obekti va predmeti: Tadqiqot **ob`ekti** sifatida Xujayli tumanining agrosanoat komplekslari tanlangan. Tadqiqot **predmetini**, Qoraqalpog'iston Respublikasining Xujayli tumanining agrosanoat komplekslarini rivojlantirish masalalari va unga tasir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari: Ilmiy ishning asosiy maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasi Xujayli tumani agrosanoat komplekslari rivojlantirishning muammolarini o'rganib, uni echish yullarini ko'rsatib berish hisoblanadi.

Yuqorida kursatilgan maqsaddan kelib chiqqan holda dissertatsiyada quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tabiiy sharoit va resurslarning tasirini o'rganish;
- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasir ko'rsatuvchi faktorlarni aniqlash;
- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishda tuman aholisining, mehnat resurslarining mavqiyini aniqlash;

¹ 2017 йил 7 февралдаги ПФ 4947 сонли фармони.

² 2017 йил 7 февралдаги ПФ 4947 сонли фармони.

- Tumanda agrosanoat komplekslarining joylashishini o'rganish;
- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishning muammolarini o'rganish;
- Tuman agrosanoat komplekslari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni echish yo'llari belgilash;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Mamlakatimiz dehqonlari va chorvalari avvaldan qishloq xo'jaligini yuritish usullarini yaxshi yo'lga qo'ygan bobo dehqonlar eli. Respublikamizda qishloq infratuzilmasi, agrosanoat komplekslari muammolari malum darajada o'rganilgan. Oliy o'quv yurtlarida qishloq xo'jaligi sohalari buyicha kadrlar tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Agrosanoat komplekslarini joylashtirish va rivojlantirish masalalari bo'yicha olimlarimiz ancha ilmiy ishlar yaratgan. Lekin, biz o'rganayotgan tuman agrosanoat komplekslari hali ham tuliq o'rganilmagan.

Bu ilmiy ish Xujayli tumanining agrosanoat komplekslarini rivojlantirishning muammolarini kompleksli o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishi. Avtor tamonidan tadqiqot ishida quyidagi masalalar ishlab chiqildi:

- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishining tarixi o'rganildi;
- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tabiiy sharoit va resurslarning tasiri o'rganildi;
- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasir ko'rsatuvchi faktorlarni aniqlandi;
- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishda tuman aholisining, mehnat resurslarining roli aniqlandi;
- Tumanda agrosanoat komplekslarining joylashishi o'rganildi;
- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishning ayrim muammolari aniqlandi;
- Tuman agrosanoat komplekslari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni echish yo'llari belgilandi va takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Xojayli tumanining agrosanoat komplekslarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan va kelajagi

prognoz qilingan. Tadqiqotlarning natijalari agrosanoat komplekslarini joylashtirishda, rivojlantirishda, agrosanoat komplekslari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni echishda davlat va nodavlat korxonalar, shuningdek respublika miqyosidagi tashkilotlarga amaliy yordam sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz agrosanoat komplekslari masalalarin majmualilik jihatdan o'rganish masalalari bir nechta olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ular Sadikov A.M., Husanov R.H, Yo'ldashev Z., Kayumov F.K., Abdullaev R.A., Axmedov K., Fayzullaeva A., Yunusova R.T, Abdug'aniev A. va boshqalar hisoblanadi. Qoraqalpog'istonda bu muammolari bilan M.Medetullaev, E.Umarov, T.Tajimov, G.Xodjaeva va boshqalar shug'ullanishgan.

Ushbu ishda mamlakatimiz agrosanoat komplekslari rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlar tumanning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga bog'liq holda o'rganilgan.

Umuman, mamlakat va uning ayrim joylari qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlash sohalarining rivojlanishiga oid masalalar mustaqillikkacha bo'lgan davrda tadqiqotchilarning diqqat markazidan chetda qolmaganligini ta'kidlash muhim. Shuni ham qayd qilish kerakki, bozor munosabatlari sharoitida, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni davom etayotgan hozirgi davrda mazkur muammolar hali etarlicha o'rganilgan emas. Shu sabab, Xo'jayli tumanining agrosanoat komplekslarining rivojlanishini o'rganish maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab etmoqda.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikalar tavsifi. Tadqiqot jarayonida geografik taqqoslash, tarixiy, hududiy tahlil, statistik-matematik, kartografik, tizim-tarkib va prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

Ushbu ishning metodologik asoslari mustaqillik davrida respublikada sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlarga qaratilgan takliflarga hamda ushbu masalalarga tegishli respublika rahbariyati tomonidan qabu qilingan qonun va ko'rsatmalar bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida iqtisodiy muammolar bilan bog'liq nazariy-uslubiy ahamiyatga molik agrosanoat komplekslarining asosiy ilmiy g'oya va qonuniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, bajarilgan tadqiqotning asosiy xulosa va takliflari, statistik materiallari mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish da ahamiyatlidir.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalardan amalda qo'llanish imkoniyatlarining mavjudligida o'z aksini topgan. Tadqiqot natijalari agrosanoat komplekslarini joylashtirishda, rivojlantirishda, agrosanoat komplekslari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni echishda davlat va nodavlat korxonalar, shuningdek respublika miqyosidagi tashkilotlarga amaliy yordam sifatida xizmat qiladi.

Ishning tuzilimasi tafsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ish ____ betni tashkil qiladi. Unda ____ jadval, ____ ta karta, ____ ta chizma va ____ ta ilova mavjud bo'lib, uni bajarishda ____nomdagi ilmiy adabiyotlar hamda boshqa manbalardan foydalanildi.

I – BOB. TABIIY SHAROIT VA TABIIY RESURSLARNING AGROSANOAT KOMPLEKSLARINI RIVOJLANTIRISH MAQSADLARIDA FOYDALANISH

I.1. Tumanning geografik joylashgan o'ri, chegaralari va reliefi

Geografik joylashishi jihatidan Respublikamizning Qonliqo'l, Shumanay va Taxiatoş tumanlari, Nukus shahri, Turkmaniston Respublikasining Ko'hna Urgench tumani bilan chegaralashgan. Tuman Amudarëning chap tomonida joylashgan. Tumanning yer maydoni 551,5 kv km. Tumanning geografik o'ri o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, u qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yuritishda va rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jayli tumani Qoraqalpog'iston Respublikasidagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan yirik tumanlaridan biri bo'lib, tumanda asosan dehqonchilik tarmoqlari keng rivojlangan.

Tuman aholisi soni 119,7 ming kishi (01.01.2018 y.). Aholisning o'rtacha zichligi har kvadrat kilometrga 217 kishidan to'g'ri keladi. Aholi zichligi ko'rsatkichi bo'yicha Respublikada birinchi o'rinni egallaydi.

Tuman markazi – Xo'jayli shahri.

Xo'jayli tumani Qoraqalog'iston Respublikasi tarkibida tuman sifatida 1927 yilning 3 dekabr kuni tashkil topgan. Hozirgi davrda tuman Qoraqalog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligining paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik tarmoqlari va sanoati rivojlangan tumanlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Rele'f tuproq xilma-xil qatlamlarining joylashishi tarkibi, xarakteriga, tabiiy o'simliklarning joylashishi, suv-havo rejimi, tuproqning mexanik tarkibi, yonbag'rlarning shakliga ta'sir etadi. Ishlov berilayotgan yer maydonlari rele'fi, o'lchamlari va shakli, energiya sig'imining ta'siri ma'lum darajada yerga ishlov berish texnologiyasi va mehnat unumdorligida, ishlab chiqarish salohiyatining barcha tarkibiy qismlaridan foydalanish samaradorligida ham aks etadi.

Xo'jayli tumani hududi rele'fining tuzilishida unchalik darajada o'zgachalik yo'q. Tuman hududi geomorfologik jihatdan tekislik, ya'ni vohaga xosdir. Lekin ayrim maydonlarda xususan Turkmaniston bilan chegaradosh hududda tepalikning bir bo'limi joylashgan.

Yer yuzasi asosan cho'kindi yotqiziqlardan tashkil topgan. Yer yuzasiing asosan tekis bo'lishi qishloq xo'jaligi ishlarini to'liq darajada mexanizatsiyalashtirishga imkoniyat yaratadi.

Chunki tekislik joylarni o'zlashtirish tog'li hududlarda nisbatan birmuncha arzonga tushadi. Ya'ni tumanning rele'fi qishloq xo'jaligi nuqtai-nazaridan qulay hisoblanadi.

I.2. Tumanning iqlim sharoiti

Tumanning iqlim sharoiti hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda va maqsadga muvofiq joylashtirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan yuqori hosil to'plashda iqlim sharoitlari va resurslari muhim o'rin tutadi. Chunki qishloq xo'jalik ekinlarini ekib, undan yuqori hosil olish xo'jalikning iqlim sharoitiga bog'liq hisoblanadi.

Ho'jayli tumanining iqlim sharoiti respublika iqlim sharoitiga mos bo'lib, tuman hududining keskin kontinentligi bilan ifodalanadi.

Tuman iqlim sharoitining shakllanishida respublikamiz iqlim sharoitiga xos Shimoliy Muz okeanidan keluvchi sovuq havo oqimlari, Atlantika okeanidan keluvchi namli havo massalari, Qizilqum va Qoraqum, Ustyurt platosining roli katta hisoblanadi.

Tuman hududining iqlimi yog'in – sochin kamligi bilan ifodalanadi. Chunki tuman dehqonchiligi respublika dehqonchiligiga o'xshash sug'ormali uslubda olib boriladi.

Tuman iqlimining shakllanishi va mo'tadilligi kunlik, oylik va – yillik temperaturalarning amplitudasining nisbatan kattaligi bilan tariflanadi.

Tumanning iqlim amplitudasi $73 - 75^{\circ}\text{C}$ – ni tashkil qiladi. Yozi issiq, qishi nisbatan sovuq bo'lib keladi.

1 – jadval

Xo'jayli tumani hududida iqlim sharoitining ko'rsatkichlari¹

Q/s	Meteostantsiya nomlari	O'rtacha temperatura °C hisobida		Maksimal temperatura °C hisobida	Sovuqsiz kunlar soni
		yanvar	iyul		
1.	Qo'ng'iro't	– 7,6	+25,8	41	195
2.	Chimboy	– 7,1	+26,0	43	193
3.	Nukus	– 6,9	27,1	44	196
4.	To'rtkul	– 5,5	28,2	44	210

Tumanda qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori darajada mahsulot olishda iqlim va ob – havo sharoitlari, shuning ichida foydali temperatura yig'indisi katta o'rin tutadi. Sababi, dehqonchilik ekinlari ko'pincha iqlimning qulay va noqulayligiga bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Bu esa tuman hududida erta kuzda va kech bahorda qishloq xo'jaligi ekinlarini qirov urib qolishiga sababchi bo'ladi.

Ushbu bakalavr bitiruv ishimda tuman hududining iqlimiga respublika hududidagi meteostantsiya ma'lumotlari bilan solishtirishdan foydalanildi.

Tumanining iqlim sharoitini tadqiqod qilishda tumanga yaqin joylashgan To'rtkul va Nukus shahri meteostantsiyalari ma'lumotlari bilan tanishamiz.

To'rtkul meteostantsiyasi ma'lumotlariga ko'ra yanvar oyi o'rtacha temperaturasi – 5,5°C, eng issiq deb hisoblangan iyul oyining o'rtacha temperaturasi +28,2°C teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich qo'shni meteostantsiya ma'lumotlariga solishtirganda bir muncha farq qiladi. Respublikamiz shimolida va janubida joylashgan meteostantsiyalarga nisbatan 2 – 3°C ga farq qiladi va o'rtacha – yillik amplituda 32 – 33°C ni tashkil qiladi. Kuzatishlarga qaraganda eng yuqori temperatura +44°C ga etgan.

¹ Матмуратов Дж. Агроклиматические условия Северо-Западного Узбекистана. - Нукус, 1989

**Xo'jayli tumani hududida vegetatsiya davrida temperatura yig'indisi
va uzoqligi**

Q/s	Meteostantsiya nomlari	Vegetatsion davr bo'yicha yig'indisi (⁰ C hisobida)	Vegetatsion uzoqligi (kun hisobida)		Vegetatsion davrdagi effektiv harorat (⁰ C hisobida)
			+5	+10	
1.	To'rtkul	3900	237	213	2200
2.	Nukus	3750	220	187	2050

Yuqorida ko'rsatilgan jadval ma'lumotlari bo'yicha vegetatsion davr ichida +10⁰C dan yuqori temperaturasi summasi 3900⁰C ga eng bo'lib, +5⁰C dan yuqori temperaturali kunlar soni 220 kunni tashkil qiladi. Ya'ni aprelning boshidan oktyabr oyining 2 chi o'n kunligigacha cho'ziladi.

Shundan effektiv temperature yig'indisi tuman hududida 2200⁰C tashkil qiladi. Effektiv temperature ko'p bo'lishi tadqiq qilinayotgan tumanning hududida qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda muhim o'rin tutadi. Iqlim va agroiklim resurslari dehqonchilik, chorvachilik tarmoqlarining yuqori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tuman hududida iqlim sharoitlarini belgilashda yog'in-sochin miqdori muhim o'rin egallaydi. Yog'in-sochin esa yil mavsumlari va oylari bo'yicha bir xil taqsimlanmagan. Asosiy yog'in-sochin, ya'ni uning 40 % bahor oylariga to'g'ri keladi, 29 % qish oylariga, 18 % kuz oylariga to'g'ri kelsa, 11 % esa yoz oylariga to'g'ri keladi.

Tuman hududida yog'ingarchilik asosan bahor oylariga to'g'ri keladi, bu esa bahorda dehqonchilik ishlarini olib borishda to'sqinlik qilmoqda, bir va bir necha marta qishloq xo'jaligi ekinlarini qaytadan ekishmoqda. Umuman olganda eng yaqin Nukus va To'rtkul meteostantsiya ma'lumotlariga ko'ra yillik yog'inlarning miqdori o'rtacha 95-103 mm tashkil qiladi.

Keyingi yillari xo'jaliklar hududlarida yo'gin-sochin miqdorining ko'payotganligi sezilmoqda. Ayrim yog'ingarchilik ko'p bo'lgan yillari o'rtachca 1,3-1,5 marotaba uning miqdori ortganligi ma'lum.

Tuman hududida tabiiy namlanish jarayoni past darajada. Chunonchi, xo'jalikning dehqonchilik tarmoqlarida qo'ldan sug'orish tufayli qishloq xo'jaligi ekinlarining namlikka bo'lgan ehtiyojini to'ldirishga termik resurslardan to'liq va maqsadga muvofiq foydalanish zaruriyatini talab qiladi.

Tuman hududi respublikamizning janubiy qismida joylashganligi sababli, iqlim va iqlimiy faktorlar birmuncha qulay hisoblanadi.

Tuman hududi bo'yicha sovuqsiz kunlarning soni, ob-havo, temperatura namlik, effektiv temperature yig'indisi, yog'in-sochin miqdopri va xokazo tabiiy omillarni hisobga olib dehqonchilik qilish, yuqori hosil olish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytsak Xo'jayli tumanining iqlimining xarakterli tomonlari quyidagilardan iborat:

1) Xo'jayli tumani iqlimi yozi issiq va qurg'oq bo'lib, qishi esa sovuq bo'ladi: yillik amplitudaning yuqori bo'lishi tuman iqlimining keskin kontinentalligini ko'rstadi.

2) Tuman iqlimi juda kam yog'in-sochin tushgani dehqonchilik tarmoqlari faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi.

3) Tuman iqlimi Qoraqalpog'istonning boshqa shimolda joylashgan tumanlariga qaraganda biroz iliq, Xorazmn viloyati tumanlariga qaraganda biroz salqin bo'lishi, sovuqsiz kunlar miqdorining kamligi dehqonchilik uchun zarur bo'lgan effektiv temperature miqdorining ozligi bilan xarakterlidir.

4) Qishloq xo'jaligi uchun eng qulaysiz iqlim sharoitlariga quyidagilar kiradi. Birinchidan dehqonchilikka, shuning ichida makkag, sholiga, paxtaga va boshqa madaniy o'simliklarga zararli bo'lgan bahorda va erta kuzda takrorlanib turadigan sovuq urushlar hisoblanadi.

Ikkinchidan qishloq xo'jalik o'simliklariga katta zarar keltiradigan va aytarlicha har yili kech bahorda va erta kuzda takrorlanib turadigan yog'in-

sochinning bo'lishi, qish oylarida mol chorvachiligiga katta zarar keltiradigan sovuq shamollarning bo'lishi va temperaturaning absolyut minimal darajaga tushishi hisoblanadi. To'rtinchidan shamollarning ko'p bo'lishi.

Tuman iqlim sharoiti issiqlikni sevuvchi madaniy o'simliklarni ekishga, poliz va sabzavot, meva va pillachilikni, shuningdek, bedachilik tarmoqlarini rivojlantirishda qulayli sharoit tug'diradi. Madaniy o'simliklarning yangi navlarini foydalanishga alohida e'tibor beriladi.

I.3. Yer va suv resurslari

Yer – qishloq xo'jaligida bosh ishlab chiqarish vositasi bo'lsa, suv yerning qon arteriyasi xizmatini bajaradi. Insonlarning ishlab chiqarish faoliyai uchun zarur bo'lgan moddiy sharoitlar ichida yer-suv o'zining tuproq qatlami, qazilma boyliklari, o'rmon va suvlari bilan birgalikda haq qanday ishlab chiqarish jarayonining asosiy ibtidosi va tabiiy negizi sifatida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Yerga ishlab chiqarish vositasi sifatida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari ehtiyoj sezadilar. Ishlab chiqarish vositasi sifatida yerning eng muhim xossasi uning unumdorligidir va suv bilan ta'minlanganligiga ham bog'liqdir.

Yerni har tomonlama yaxshilash va hosildorligini orttirish qishloq xojaligini rivojlantirishning eng asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni orttirish yerdan to'g'ri va natijali foydalanish bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasining 1990-yili 20 iyunda "Yer va yer resurslaridan foydalanish" haqida, 1992 yili 9 iyulda "Dehqon va fermer xo'jaliklari" haqidagi qonunlarning qabul etilishi yer resurslariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etadi. Natijada yerdan foydalanish va yerga egalik qilishda yangi aloqalarni paydo etadi.

Jamiyatning rivojlanishining barcha bosqichlarida yer eng ahamiyatli va uning o'rnini hech bir narsa bosa olmaydiganligi, odomzotning tirikchiligi uchun ahamiyatli ishlab chiqarish qurollari sifatida belgilanadi. Tuman yer

resurslari ham boshqa tuman yer resurslariga nisbatan hosildor tuproqlardan tarkib topgan.

Butun respublikamizda birdan-bir yagona suv tizimi Amudaryo va undan boshlanuvchi kanallar hisoblanadi. Oxirgi yillari respublika hududi suv resurslarining kamayib ketishining asosiy sabablaridan biri Amudaryo havzasining yuqori qismida ko'plab yangi yerlarning o'zlashtirilishi, daryoning yuqori qismida qishloq xo'jaligida suvdan unumli foydalanish maqsadida bir necha suv omborlarining ishga tushishi, Qoraqum, Amu-Qarshi, Amu-Buxoro kanallarining ishga tushishi natijasida ushbu hududlarda 1,5-1,6 mln. ga maydon o'zlashtirildi va dehqonchilik aylanishiga qo'shilishi natijasida Amudaryoning quyi qismida, shuning ichida Xo'jayli tumani suv resurslarining etishmovchiligi muammo bo'lib qolmoqda. Asosan tumanda 2000-2001 yillardagi suv tanqisligi dehqonchilik, chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishiga katta ta'sir qildi. Xo'jaliklar hududlarida tuproqlarning sho'rlanishi, yer osti suvlarining sathining pasayib ketishi natijasida yaylovlar maydoni birmuncha qisqarib ketdi. Tuman hududida hozirgi vaqtda sug'orish tizimlarini yaxshilash va undan effektiv foydalanish muammolari turibdi.

Tuman hududida to'qayzor, qamishzor, botqoqlangan, sho'rlangan maydonlar ancha. Suenli, Raykomyab, Keneges orna, Ivanyab, Xateb orna, Bekyab arna, Qorabayliyab kabi irrigatsiya shoxobchalari bunyod etilgan. Yuqoridagi ma'lumotlarga e'tabor bersak tuman hududidagi suv bilan ta'minlaydigan asosiy xo'jaliklararo kanallar va ularning tarmoqlari tizimi berilgan. Ushbu kanallar tizimi orqali tumanning ming-minglab gektar maydonlari sug'oriladi. Hozirgi vaqtda respublikamiz Do'stlik kanali singari ishonchli suv manbai Suenli sug'orish sistemasi hisoblanadi.

Suenli sug'orish sistemasi, Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan Xo'jayli, Sho'manay, Qanlikul, Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlarini suv bilan ta'minlab, yil sayin 130 gektardan ortiq ekin maydonini sug'orishga sharoit yaratmoqda.

Suenli magistral sug'orish kanali Amudaryoning chap tarmog'ida 2-5 km masofada oqib o'tgandan keyin o'z yo'lida bir necha yangi qurilgan kanallarni ham suv bilan ta'minlaydi. 1940 yildan 1974 yilgacha kanal injenerlik usulda yo'naltirilgan regulyator orqali 1974 yildan boshlab Taxiatosh gidrouzeli ishga tushishi bilan to'la injenerlik usulda suv bilan ta'minlashga o'tdi. Suenli kanali 42 km masofagacha 1940 yildan boshlab ta'mirlandi, shu masofadan quyiroqda qazilgan Sho'manay kanaliga ham suv beradigan bo'ldi. 1971 yildan boshlab, Suenli kanaliga parallel qilib ikkinchi saga olindi, bu Taxiatosh qisnog'idan quyiroqda Amudaryoning chap tomoni bo'ylab oqib ko'p suv bilan ta'minlaydigan bo'ldi. Natijada Sho'manay zonasidan keng miqdordagi ekin maydonlari qishloq xo'jaligida foydalanishga berildi. "O'zgidrovodxoz" muassasasining dasturida ko'rsatilgan rejaga ko'ra Suenli kanalining suv sarfi 250 metr kub sekundni tashkil etadi. Shunday qilib, keyingi ma'lumotlarga ko'ra Suenli kanalining suv o'tkazish imkoniyati ko'paydi.

Shu tahlilda Amudaryodan olinadigan suv manbalarini rejalashtirish tuman bo'yicha suvdan foydalanishni yaxshilashga va ekin maydonlarni suv bilan ta'minlashga ijobiy ta'sir etmoqda.

Lekin daryoda suv kam yillari dehqonchilik uchun suv muammo bo'lib qolmoqda. Uning ustiga kanallardan foydalanish koeffitsienti 50-60 % oshmayapdi, bu esa suv resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanishda muammolarni keltirib chiqaradi. Yerlarning meilorativ ahvoli yomonlashayotganligi, yerlarning notekisligidan gektariga belgilangan normadan birmuncha ko'p suv qo'yiladi va ortiqcha suvlarni zovurlarga oqizib yuborish hollari uchramoqda.

Biz tadqiq qilayotgan tumanda xo'jaliklararo magistral kanallar xo'jaliklar ichkarisidagi kanallarni ham har bir fermer xo'jaliklarida bo'lib olgan va uning uzunliklari aniqlangan bo'lib, suvdan foydalanuvchilar uyushmasida ro'yxatdan o'tkaziladi. Xo'jaliklar hududlarida sug'orish kanallarining har birida bir nechta elektr nasoslari va yuzlab dizel nasoslari ishlab turibdi. 300 dan ortiq fermer xo'jaliklari nasoslaridan foydalanadi.

Xo'jalik hududi bo'yicha yerlarning meliorativlik ahvolini yaxshilash bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar qilinmoqda. Tumanda asosan paxtachilikka ixtisoslashganligi sababli sholichilik tumanlariga nisbatan kollektor-drenaj tarmoqlari bilan ta'minlanishi pastroq hisoblanadi. Kollektor-drenaj tarmoqlari ahvoli ta'mir talab etadi. Bu esa ko'plab mablag'larni talab qiladi. Shu bois ekin maydonlarini suv bilan ta'minlashda Suenli, Bekyab arna, Ivanyab, Xatepyab kabi irrigatsiya tarmoqlarini va uning shxobchalari rekonstruktsiyalash va suvdan foydalanish koeffitsientini o'ttirish eng muhim muammolardan hisoblanadi.

1.4. Yer fondi, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi

Tuman tuproqlari unumdor alyuvial yotqiziqlar ustida paydo bo'lgan strukturali va gumusga boy madaniy tuproqlardan iborat. Uning maydoni 0,789 ming gektarni tashkil etadi. Shundan Suenli sug'orish sistemasi ta'sir etadigan mintaqalarda mavjud ekin maydonlarining hajmi 2018 yilning 1 yanvari holatiga ko'ra 16200 gektarni tashkil etadi¹.

Lekin, keyingi yillari yerlarning meliorativlik ahvoli yomonlashmoqda. Dehqonchilik maydonlarining sho'rlanishi ortmoqda. Bu esa dehqonchilik maydonlarini chayib sug'orishni talab qiladi. Chunonchi, sug'oriladigan dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirishda suv resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalar ishlanishi lozim. Respublikamizning janubiy tumanlariga xos ekin maydonlarining strukturasini ko'rib chiqish, suvni kam talab qiladigan ekinlarni ekish dehqonchilikda almashlab ekishni keng yo'lga qo'yish zarur.

Tuman hududidagi o'simlik qatlamining joylashishi va rivojlanishi hududning tuproq va iqlim sharoitlariga bog'liq bo'lib keladi. Tuman hududida o'simlik dunyosining shakllanishida yer osti suvlarining daryo suvlarining, tuproq va iqlimning ahamiyati katta bo'lib, asosan ko'pchilik maydonlar tabiiy o'simliklar bilan qoplangan. Xo'jalik hududi sug'ormali zonada joylashganligi

¹ Xojayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti, 2017 y.

sababli nisbatan o'simlik va hayvonot dunyosiga boy hisoblanadi. Xo'jaliklarga kanallar, suv tarmoqlariga yaqin joylarda yog'ochlardan – turong'il, jiya, tol va h.k. keng uchraydi.

Yer osti suvlari yaqin bo'lgan kollektor, zovur, kanal bo'ylarida o'tloqli o'simliklar assotsiatsiyalari uchraydi. Ulardan eng asosiylari: pichan, yantoq, buyon, uriq, ajiriq va h.k. Tuman hududining ayrim sho'rli tuproqlarida qarabaraq, baliqko'z va h.k. o'simliklar o'sadi. O'simliklardan sug'oriladigan yerlarda pechak, chigin, sho'ra uchrashsa, qumli hududlarda saksavul, juzgun va h.k. uchraydi.

Xo'jaliklar hududida joylashgan ayrim o'simliklarning ahamiyati katta hisoblanadi, meditsinada dori-darmonlar olish uchun ham keng foydalaniladi. Ulardan asosiysi bo'yon tomiri hisoblanadi. Respublikamiz hududida bo'yon plantatsiyalarini kengaytirish orqali farmosevtika tarmog'ini rivojlantirish imkoni bor bo'lsa va uning tuyimli chorvachilik uchun em-xashak sifatida ham ahamiyati katta. Tabiiy o'simliklardan qamishli yaylov katta o'rin egallaydi. Bu esa chorvachilikni rivojlantirishda tabiiy em-xashak zaxirasini tuzishda muhim o'rin tutadi. Tabiiy yaylovlarning unumdorligi gektariga 5-12 ts tashkil qiladi.

Xo'jalik hududidagi yaylovlarda yantoq ko'plab uchrashib, asosiy em-xashak sifatida sanaladi. Shu bilan birga, xo'jaliklarda odomlar tomonidan o'zlashtirilgan madaniy o'simliklar ko'plab ekiladi. Ulardan, donli ekinlardan: bug'doy, sholi, tariq mosh, loviya va h.k., em-xashak ekinlaridan: makka-jo'g'ori; poliz ekinlaridan: qovun, tarvuz, qovoq; mevalardan: olma, anor, olxo'ri, shoftoli va h.k. uy uchastkalarida o'stiriladi.

Ohirgi yillari respublikamizda, shuning ichida biz tadqiq qilayotgan tumanning meliorativlik sharoitining keskinlashishi o'simlik qatlamining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Tumanning hayvonot dunyosi respublikamiz hayvonot dunyosiga o'xshash bo'lib, asosan deltada uchraydigan hayvonlar hisoblanadi.


Ekin maydonlarining ko'p o'zlashtirilishi va hayvonlarning ko'plab ovlanishi natijasida hayvonot olami biroz qisqaradi. Tuman hududida

hayvonlardan: quyonlar, tulki, borsiq, ilon, ondatra; qushlardan: o'rdak, g'oz, chag'ala, qarg'a, yavvoyi qushlar ko'plab uchrashadi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining, bog'larning zararkunandalariga qarshi qushlarning ahamiyati yuqori. Umuman olganda tuman hududining tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari tumanning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

I.5.Tumanning qisqacha rivojlanish tarixi

Xo'jayli Markaziy Osiyshdagi eng qadimiy qalalardan biri. Topilgan arxeologik qazilmalarga qaraganda shahar eramizdan avvalgi IV-III asrlarga to'g'ri keladi. O'rta asr tarixidan shahar «Mizdaqxon» atamasi bilan mashhur bo'lib kelgan. Mahalliy aholi uni Gaur qal'a, Antakiya qal'asi, Shmamun qal'asi yoki Nazlixon suluvning qal'asi dep ham ataganlar. Ikki qator qalin paxsa devor bilan uralgan qala (Gaur qala) shaharning g'arbidagi tepalikda joylashganyu Xitoy, Hindiston, Eron, Suriya o'lkasi, Volga bo'yi va Qora dengiz bo'yidagi sayohatchilar, savdogarlar shu erda to'xtagan. Shaharning o'rtasidan Buyuk Ipak yo'li o'tgan.



Mizdaqxon.Arxeologik-arxitektura majmui.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining Farmoniga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumani 1927 yilning 3 dekabrda birlashdi. Yiriklashgan tumanning nomi Xo'jayli deb ataldi va Qoraqalpog'iston

Respublikasi tarkibiga kiritildi. Xo'jayli shahri yangi tumanning markazi bo'ldi. Xo'jayli shahrida paxta tozalash va yog' zavodlari, sanoat kombinati, avtobaza, matbuot jamiyati, aloqa uzeli, kommunal-maishiy ish yuritdi. MTS lar remont-texnika stantsiyalariga aylandi. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tobora mustahkamlanib bordi, yer-suv, texnika va o'g'itlardan foydalanish yaxshilandi, dehqonlarning moddiy farovonligi oshirildi.

1990 yillar boshida mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, bozor iqtisodiyotiga o'tilishini ta'minlash, demokratiyalash, tumanni inqirozli hollardan chiqarish, moddiy ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish, xalqning turmush farovonligi va madaniyatini yuksaltirish, inson qadriyatlarini to'la-to'kis tiklash yo'lida samarali ish yuritildi. Tumanning agrosanoat va sanoat korxonolari rivojlandi. Bu davrda ko'plab turar joylar, bir qancha maktablar va maktabgacha tarbiya muassasalari, sil kasalligiga qarshi kurash shifoxonasi, tibbiyot ambulatoriyalari, feldsherlik-akusherlik punktlari foydalanishga topshirildi. Shuningdek, qator kommunal-maishiy savdo binolari, Gona Xo'jayli va Xo'jayli bozorlari qad ko'tardi.

Mustaqillik yillarida yangilanish va o'zgarishlardan chetda qolgan sohaning o'zi yo'q. Xo'jayli tumani faqat Qoraqalpog'istonda emas, balki O'zbekiston miqyosida alohida o'rni bor tumanlardan biri. Dehqonchilik sohasida o'z salmog'i, tajribasi va ustaligiga ega bo'lgan Xo'jaylichilar mustaqillik yillarida o'z mavqeini oshirish, dehqonchilik sir-asrorlarini yoshlarga o'rgatish yo'lida ham bir qancha yutuqlarga erishgan. Xo'jayli paxta tozalash zavodining mehnat jamoasi respublika boshqada tumanlari dehqonlari bilan birgalikda mustaqillik yillarida jahon bozoriga eng yuqori sifatli paxta tolasi etkazib berganligi uchun xalqaro tashkilotning hurmat belgisini hamda sifat sertifikatini olishga muvaffaq bo'ldi va h.k.

II BOB. XO'JAYLI TUMANINING IQTISODIY RESURLARI VA UNDAN AGROSANOAT SOHALARIDA OQILONA FOYDALANISH YO'LLARI

II.1. Tuman aholisining soni va o'sish dinamikasi, uning agrosanoat kompleksini rivojlantirishga ta'siri

Jamiyatning ishlab chiqarish kuchi bo'lgan aholini o'rganish, xalq xo'jaligi va shuningdek, fan uchun ham katta ahamiyatga ega. Sababi: mamlakatning xalq-xo'jaligi tarmoqlarini hududiy joylashtirish va rivojlantirishda, aholi soni, ijtimoiy tarkibi, o'sishi, migratsiya jarayoni, hududiy joylashish xususiyatlari va hakoza ko'rsatkichlar katta rol o'ynaydi. Xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun har bir tumanning aholisi va mehnat resurslarining o'sish dinamikasi yetakchi o'rinni egallaydi. Demografik jarayonlarni o'rganishda erkak va xotin-qizlar ishchi kuchlar o'rtasidagi nisbatini aniqlash va boshqalar bugungi kunda aholi geografiyasining tadqiqot ishlarida dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Xo'jayli tumani aholisining o'sish dinamikasi, mehnat resurslari ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda va tuman hududi bo'yicha joylashishida asosiy o'rin tutadi. Sababi jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi bo'lgan aholini o'rganish, xalq xo'jaligi va shuningdek fan uchun ham katta ahamiyatga ega. Xalq xo'jaligi tarmoqlarini hududiy joylashtirish va rivojlantirishda aholi soni, ijtimoiy tarkibi, o'sishi, migratsiya jarayoni, hududiy joylashishi xususiyatlari va hakoza ko'rsatkichlar muhim o'rin tutadi.

Demografik vaziyat murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, geografik jarayon bo'lib, mamlakat aholisi sonining o'sishi, uning manbalari bo'lmish tabiiy ko'payish, aholi migratsiyasi va joylashishi, urbanizatsiyasi, aholining milliy va ijtimoiy tarkibi, oila tarkibi, mehnat resurslari va ish bilan ta'minlanish darajasi o'zida aks ettiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shu jumladan, Xo'jayli tumanida ham mustaqillik yillarida yangi demografik vaziyat vujudga keldi. Bu demografik vaziyat sobiq ittifoq davridan butunlay farq qiladi. Demografik vaziyat

avvalambor asosiy demografik jarayonlar bo'lmish tug'ilish, tabiiy ko'payish, migratsiya va urbanizatsiyada o'z aksini topadi. Bu aholi sonining o'sish suratining nisbatan pasayishi, tug'ilishning kamayishi, urbanizatsiya darajasining pasayishi, aholi o'sish suratining va aholi mutloq soni o'sishining kamayishida namoyon bo'lmoqda. Lekin, biz tatqiq qilayotgan tumanda aholi sonining o'sishi respublikamizning boshqa tumanlariga nisbatan birmuncha yuqori hisoblanadi.

Jadvaldan ko'rinib turganidek, Xo'jayli tumanining aholisi soni 2001-2012 yillar oralig'ida 32200 kishiga ko'paydi va hozirgi kunda 176700 kishini tashkil qildi. Shu davr ichida tuman aholisining o'sish surati 122,3 foizni, o'rtacha mutloq ko'payish soni esa 2017 yili 3000 kishini tashkil qildi.

3-jadval

Xo'jayli tumanining aholisining tadrijiy o'sishi

Yillar	Aholi soni	
	Ming kishi hisobida	% hisobida
2001	144,5	100,0
2002	146,9	101,7
2003	149,0	103,1
2004	151,5	104,8
2005	153,5	106,0
2006	155,6	107,7
2007	158,0	109,3
2008	161,0	111,4
2009	163,6	113,2
2010	165,9	114,8
2011	172,5	119,3
2012	176,7	122,2
2013	182,2	126,1
2014	183,5	126,9
2015	185,2	128,2
2016	187,2	129,5
2017	189,5	131,1
2018*	119,7	82,8 (63,2)

*Xo'jayli tumani iqtisodiy-ijtimoiy pasporti ma'lumotlari

*2018 yil Taxiyo'tash tumaniga Xo'jayli tumanining ayrim hududlarini ajratib berish hisobiga

Tuman aholisining o'sish surati respublika aholisining o'sish suratidan ancha yuqoriligini ko'ramiz va bu borada u respublikada peshqadam tuman hisoblanadi.

Demografik vaziyat murakkab ijtimoiy, iqtisodiy, geografik va siyosiy jarayon bo'lib, u mamlakat aholisi sonining o'sishi, uning manbalari bo'lmish tabiiy ko'payish, aholi migratsiyasi va joylashishi, urbanizatsiyasi, aholining milliy va ijtimoiy tarkibi, oila tarkibi, mehnat resurslari va ish bilan ta'minlanish darajasini o'zida aks ettiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shu jumladan, Xo'jayli tumanida ham mustaqillik yillarida yangi demografik vaziyat vujudga keldi. Bu demografik vaziyat sobiq ittifoq davridan butunlay farq qiladi. Demografik vaziyat avvalambor asosiy demografik jarayonlar bo'lmish tug'ilish, tabiiy ko'payish, migratsiya va urbanizatsiyada o'z aksini topadi. Bu aholi sonining o'sish suratining pasayishi, tug'ilishning kamayishi, urbanizatsiya darajasining pasayishi, aholi o'sish suratining va aholi mutloq soni o'sishining kamayishida namoyon bo'lmoqda.

Aholining tabiiy o'sishi, tug'ilish va o'limchiligiga bog'liq bo'lib keladi. Tug'ilish va o'limchilik jarayoni biologik jarayon hisoblanadi. Tug'ilish ko'rsatkichlari bir qancha omillarga bog'liq. Bu omillar aholining turmish tarzi va darajasi, milliy qadriyatlari, diniy e'tiqodi va boshqalar misol bo'la oladi. Bolalar o'limining yuqori bo'lishi tug'ilishning shunga bog'liq ravishda yuqori bo'lganligi aniqlangan va aksincha bolalar o'limining keskin kamayishi tug'ilishning keskin kamayishiga olib keladi. Ammo bu yerda har bir xalqning dasturiy va diniy turmish tarzi ham katta rol o'ynaydi. Shuningdek aholining madaniy, iqtisodiy, bilim darajasining o'sishi, shahar aholisi ulishining ortib borishi katta ta'sir qiladi. Ishlab chiqarishda va ijtimoiy ishlarga xotin-qizlarning faol ishtirok etishi ham tug'ilishning keskin kamayishiga olib keldi.

Hozirgi kunda tuman aholisining asosiy o'sish manbasi tabiiy ko'payish bo'lib, u hatto keyingi o'n yilliklarda manfiy migratsiya ko'rsatkichini ham qoplamoqda.

Shuni ham alohida takidlashimiz kerakki, aholining tabiiy ko'payishi yildan-yilga ko'payib borishiga qaramasdan, kelajakda tuman aholisining tadrijiy o'sishida u muhim ahamiyat kasb etadi.


Tumanda tabiiy ko'payish ko'rsatkichi 2001-yili 20,8 promilleni tashkil qilgan bo'lsa, u 2017 yilga kelib 15,1 promillega pasaydi. Tug'ilish koeffitsienti esa 26,3 promilledan, 19,8 promillega ya'ni 5,2 bandga qisqardi. 2013-yildan boshlab aholining tabiiy ko'payish ko'rsatkichi doimiy pasayotganligini ko'ramiz. Masalan: 2013-yili bu ko'rsatkich 16,4 kishini, 2014-yili 16,8 kishini, 2015-yili 16,7 kishini, 2016-yili 15,2 kishini, 2017 yil 15,1 kishini tashkil qildi. Ko'rsatilgan yillar ichida aholining o'lim darajasi ham kamayganligini ko'ramiz (4-jadval).

4-jadval

Xo'jayli tumani aholisining tabiiy ko'payishi

Yillar	Tug'ilish	o'lim	Tabiiy o'sish
2001	26,3	5,5	20,8
2002	27,1	5,1	22,0
2003	23,8	5,7	18,1
2004	25,2	5,3	19,9
2005	22,8	5,5	17,3
2006	23,9	5,2	18,7
2007	24,3	4,7	19,6
2008	25,8	5,2	20,6
2009	26,5	5,0	21,5
2010	26,4	5,3	21,1
2011	19,5	4,6	14,9
2012	21,8	5,4	16,4
2013	22,4	4,9	17,5
2014	21,9	5,1	16,8
2015	21,5	4,8	16,7
2016	20,3	5,1	15,2
2017	19,8	4,7	15,1

*Xo'jayli tumani iqtisodiy-ijtimoiy pasporti ma'lumotlari



1-rasm. Xo'jayli tumanining aholisining tadrijiy o'sishi (ming kishi hisobida)

4 - jadval ma'lumotlarida tumannning tug'ilish ko'rsatkichining yillar davomida bir maromda emasligini ko'rsatadi va so'ngi yilda juda tez pasayishi kuzatilib, asosiy sabablari o'tish davrining iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklari, Orol dengizi inqirozi natijasida ekologik sharoitning vujudga kelishi natijasida va keyingi yillari oilalarning rejalashtirilishi kabi bir qancha omillar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. So'nggi yillardagi so'rovlar natijasiga ko'ra, yoshlar orasida kam farzandlilik, kichik oila va 2-3 ta farzand ko'rish niyatlari bor ekanligini bildirishgan. Demak kelajakda tuman aholisi sonining yanada pasayishi kutilmoqda.

Tuman aholisining o'limchiligiga keladigan bo'lsak, uning o'rtacha ko'rsatkichlari keyingi yillari deyarli o'zgarmaganligi ya'ni 4,9-5,4 kishi atrofida bo'lishi kuzatilgan. Har 1000 kishiga hisoblaganimizda o'lim darajasi 2001-yili 5,5 kishi bo'lgan, 2017-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,7 kishiga pasaygan. O'lim darajasining keskin pasayishi, keyingi yillarda aholining tug'ilish darajasining pasayishi, bir yoshgacha bolalar o'limining ham pasayishi va tumanda aholiga tibbiy xizmatning bir muncha yaxshilanishidan ham kuzatilmoqda.

Keyingi yillarda 1 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'limi keskin kamaydi. Uning maksimal darajasi 1992-yilga kelib har 1000 tug'ilgan bolaga 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 50,7 bolani, 1999-yilga kelib bu ko'rsatkich 25,0 ga, 2012-yili 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 19,3 ni tashkil etgan. Tug'ilish va o'limning ayirmasi tabiiy o'simni paydo etadi. Agar tug'ilish o'limga nisbatan yuqori bo'lsa, aholi soni uzliksiz o'sib boradi. Ammo shunga qaramasdan bizning mintaqada tabiiy o'simning yuqori bo'lishi xarakterli bo'lib hisoblanadi. Bu O'rta Osiyo xalqlari uchun o'ziga xos xususiyatdir.

Tug'ilish va tabiiy o'sishning respublika ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lishi, tuman aholisi tarkibida ko'p farzandlilikni xoxlovchilarning xali ham ko'p bo'lishi va tuman hududining respublika markazida joylashganligi, uning tabiiy sharoitining shimoliy hududlarga nisbatan ekologik jihatdan bir muncha yaxshiroq ekanligidan dalolat beradi.

Tuman aholisining migratsiya balansini analizlaganimizda yillar bo'yicha bir tekis emasligini ko'ramiz. Ayrim yillari ko'chib keluvchilar soni, ko'chib ketuvchilar soniga qaraganda sezilarli ko'p bo'lgan. So'nggi yillarda ko'chib keluvchilarga nisbatan ko'chib ketuvchilar soni ortib bormoqda. 2001-yili ko'chib kelganlar 426 kishi, ko'chib ketganlar soni 1204 kishi, migratsiya saldosi -778 kishini tashkil etgan.

Lekin keyingi 2002-2017 yillari migratsiya saldosi yana da kamaygan. Buning asosiy sababi 2000-2001 yillardagi suv tanqisligi hisoblanadi, shu bilan birga mustaqillikga erishgandan so'ng ko'pchilik millatlar vakillarining o'z yurtlariga qayta ko'chib ketishi va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining qiyinchiliklariga va h.k. sabablar hisoblanadi.

Tuman aholisining migratsiya ko'rsatkichlari dinamikasini 5 - jadvaldan ko'rishimiz mumkin. Jadvaldan ko'rib turganimizdek migratsiya saldosi hanuz bir meyorga tushmaganligini va minus ko'rsatkichga egaligi bilan ko'zga tashlanmoqda.

Tumanning demografik ko'rsatkichlarini ifodalovchi omillarning biri bu aholining hududiy joylashishi va zichligi bo'lib, aholining ko'payishida muhim o'rin tutadi.

5-jadval

Xo'jayli tumani aholisining migratsiya ko'rsatkichlari

Yillar	ko'rsatkichlar		
	kelish	ketish	saldo
1960	667	621	+46
1970	662	600	+62
1980	949	626	+323
1990	1562	1682	-80
1996	438	958	-520
2002	426	1204	-778
2004	332	643	-311
2005	426	985	-559
2006	332	645	-313
2007	326	730	-404
2008	405	730	- 325
2009	310	714	- 404
2010	304	712	- 408
2011	231	807	-576
2012	968	2863	-1895
2013	1507	3262	-1755
2014	1793	3214	-1421
2015	1607	2448	-847
2016	1501	2386	-885
2017	970	1353	-383

***Xo'jayli tumani iqtisodiy-ijtimoiy pasporti ma'lumotlari**

Fuqarolar yig'inlarida o'rtacha 1 kv km zichlik 52-54 kishini tashkil etadi. Shahar aholisini ham qo'shib hisoblaganimizda o'rtacha zichlik 1 kv km maydonga 217,0 kishini tashkil etadi. Tuman aholisi eng zich joylashgan hudud Xo'jayli shahri bo'lib, unda jami tuman aholisining 50, % ortig'i istiqomat qiladi.

II.2. Aholi tarkibi

Tuman aholisining o'sishini analiz qilishda tug'ilish, tabiiy o'sish va mehnat resurslarini oldindan bashorat qilish uchun, aholining yosh va jinsiy tarkibini o'rganishimiz zarur bo'ladi. Sababi xalq xo'jaligi sohalarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri mehnat resurslari bo'lib hisoblanadi.

Mehnat resurslari tuzilishining oldingi vaqtlardagi holatini oldindan bashorat qilish, rejalashtirish uchun aholining yosh va jinsiy tarkibiga qarab aniqlaymiz. Shunga qarab biz xalq xo'jaligida yangidan kelib qo'shiluvchi mehnat resurslarini, ish bilan ta'minlash darajasini rivojlantiramiz.

Xo'jayli tumani aholisining yosh tarkibini taqqoslaganimizda 16 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ulushi juda yuqori ekanligini ko'ramiz. 2017–yilgi ko'rsatkichi bo'yicha 35902 kishi yoki tuman aholisining 30,0% ni tashkil etgan. 16 yoshdan 55, 60 yoshgacha aholi soni 72103 kishi yoki tuman aholisining 2017-yilgi ko'rsatkichi bo'yicha 60,2% ni tashkil etgan. 60 va undan ortiq yoshdagi aholi 11671 kishi yoki 9,8% ni tashkil etgan.

Tuman aholisining jinsiy tarkibini ko'radigan bo'lsak, ayniqsa 16 yoshgacha bo'lgan qismida erkaklar (54,6%) sonining ayollar (45,4%) soniga nisbatan katta ekanligini ko'ramiz. 1989-yilda tuman aholisining barcha aholisi 49,4% erkaklar va 50,6% ayollar ulushiga to'g'ri keladigan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017-yilga kelib 54,6% erkaklar va 45,4% ayollardan iborat.

Hatto boshqa tumanlarda ayollar sonining ko'pligi 60 yoshdan yuqori yoshdagilar guruhiga kuzatilsa bu tumanda ushbu yosh guruhida ham erkaklar soni yuqori.

Xo'jayli tumanining milliy tarkibi har xil hisoblanib asosan o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman, rus, tatar, koreys, ukrain va boshqa millatlarning vakillari yashaydilar. So'nggi yillarda tuman aholisining milliy tarkibida avvalgi yillarga nisbatan ancha o'zgarishlar kuzatilib, ayrim millat vakillarining soni ortganligi va aksincha ayrim millat vakillari sonining kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan 2001-yilgi ma'lumot bo'yicha qoraqolpoqlar 2,4% yoki 3,3 ming kishi, o'zbeklar 85,1% yoki 122,9 ming kishi, qozoqlar 9,8 % yoki 9,7 ming kishi, ruslar 0,03 yoki atiga 57 kishi, turkmanlar 2,0% yoki 2,9 ming kishi, bu ko'rsatkich 2004-yilga kelib qoraqalpoqlar 1,9% yoki 3,3 ming kishi, o'zbeklar 09,5% yoki 159,9 ming kishi, qozoqlar 5,5% yoki 9,7 ming kishi, ruslar 0,03% yoki 53 kishi, turkmanlar 1,7% yoki 3171 kishini tashkil etgan.


Xo'jayli tumani aholisining milliy tarkibini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

6-jadval

Xo'jayli tuman aholisining milliy tarkibi

№	Millatlar	2017 yil	
		Aholi soni	% hisobida
1	O'zbeklar	38775	32,4
2	Qozoqlar	31475	26,3
3	Qoraqolpoqlar	38536	32,2
4	Turkmanlar	1915	1,6
5	Tatarlar	718	0,6
6	Koreyslar	1795	1,5
7	Ruslar	1198	1,0
8	Boshqalar	5264	13,2
	Jami:	176700	100,0

*Xo'jayli tumani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti ma'lumotlari



2-rasm. Xo'jayli tumanining aholisining tadrijiy o'sishi (ming kishi hisobida)

Tuman aholisining milliy tarkibining dinamikasini o'rganganimizda, keyingi yillarda ko'pgina millat vakillarining o'sish suratlari biroz pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa qozoq millatiga doir aholi so'ngi 10-12 yilda juda tez kamaygan. Agar 2001–yilda ular tuman aholisining 9,8 %

ni tashkil qilgan bo'lsa 2012–yilga kelib ularning ulishi 5,5 % pasaygan. Buning asosiy sababi, bizning resublikamizda migratsiya darajasi salbiy ko'rsatkichga ega ekanligi, ya'ni sobiq ittifoqning parchalanib ketishi, Orol bo'yi ekologik sharoitining glaballashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va boshqa ko'pgina omillar ta'siri natijasida ko'pgina millat vakillarining ko'chib ketishi kuzatilmoqda.

II.3. Mehnat resurslari va bandligi

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat resurslarining bandligining eng maqbul yo'lini topish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi va u mehnat bozorining shakllanishida va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Respublikamiz mustaqillikka erishish davrigacha aholini umumiy ish bilan ta'minlash siyosati amalga oshirilar, qonunga binoan barcha aholini ijtimoiy ishlab chiqarishda band etish ko'zda tutilgan edi, lekin mehnat resurslaridan samarasiz foydalanilar, ularning yoshi va jinsiy tarkiblarida, tarmoqlar va hududiy bandligida nomutanosibliklar kuzatilar edi.

Mustaqillikka erishgandan keyin aholini ish bilan ta'minlash siyosatida asosiy o'rin mehnat bozorini shakllantirishga qaratilgan va shu asosda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni tartibga solishdan iborat siyosat amalga oshirila boshlandi. Ma'lumki, ishchi kuchini tovarga aylantirmasdan turib, aniq bozor munosabatlarini shakllantirish mumkin emas.

Xo'jayli tumani respublikamizdagi kabi, juda yuqori mehnat resurslari salohiyatiga ega. Ushbu mehnat resurslari avvalgi o'n yilliklarda tug'ilish darajasi yuqori bo'lganligi hisobiga ro'y bermoqda.

Mehnatga yaroqli yoshdagi shaxslar, 16 yoshdan 55-60 yoshgacha jami 72103 kishi, ya'ni umumiy aholining 60,2 foizini tashkil etadi. Shulardan erkaklar 39368 kishi ya'ni 54,6 foizni, ayollar esa 32735, kishini ya'ni 45,4

foizni tashkil etadi. Mehnatga yaroqli yoshdan kattalar jami aholining 9,8 % tashkil qiladi.

7-jadval

Xo'jayli tumani aholisining yosh va jinsiy tarkibi (2017 yilgi malumot bo'yicha)

№		Aholi soni	Foiz hisobida
1.	Tuman aholisi soni	119676	100,0
2	Shundan: 16 yoshgacha aholi soni	35902	30,0
3	Mehnatga yaroqli aholi soni	72103	60,2
4	Mehnatga yaroqli yoshdan katta bo'lganlar	11671	9,8

*Xo'jayli tumani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti ma'lumotlari

Tumanni mehnatga loyqatli aholisining tarmoqlar bo'yicha taqsimini quyidagi 8-jadvaldan ko'rish mumkin.

8-jadval

Xo'jayli tumani iqtisodiyotda band aholining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)

Ko'rsatkichlar		2017
Jami:	ming.kishi	55,1
shu jumladan:		
Qishloq xo'jaligida	ming.kishi	3,4
Sanoatda	ming.kishi	3,0
Qurilishda	ming.kishi	1,6
Transport va aloqada	ming.kishi	1,0
Sog'likni saqlashda	ming.kishi	2,4
Maorif sohasida	ming.kishi	4,6
Savdo, umumiy ovqatlanishda va tayyorlash korxonalarida	ming.kishi	2,1
Madaniyat va fizikulturada	ming.kishi	0,15
Moliya va sug'urtamuassasalarida	ming.kishi	0,25
Boshqaruv organlarida	ming.kishi	0,5
Boshqa soha va tarmoqlarda	ming.kishi	36,1

*Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika bosh boshqarmasi va tuman statistika bo'limi malumotlari

Mehnat resurslarining soni va o'sish dinamikasi, mutaxassisligi va bilim darajasi, Respublika xalq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim omillaridan

biri hisoblanadi. Mehnat resurslari mamlakatimiz qonuniga ko'ra 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar mehnatga yaroqli hisoblanadi. Shuningdek mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan nafaqaxo'rlar va ayrim vaqtlari 14-16 yoshlar oralig'idagi o'smirlarni mehnat resurslariga kiritamiz.

Mehnat resurslarining miqdorini aniqlaganimizda muayyan yoshdagilarning salmog'i ham hisobga olinadi. Jumladan, 18 yoshdan 49 yoshgacha bo'lganlar mehnatga eng yaroqli kishilar hisoblanadi.

Xo'jayli tumanida mehnat resurslarining yuqori sur'at bilan o'sishi, bir tomondani xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda qulay vaziyat yaratsa, ikkinchi tomondan ularni ish bilan band etish va mutaxassisliklari asosida ish bilan ta'minlash muammolari kelib chiqmoqda.

Xo'jayli tumani qishloq mehnat aholisi mutloq soni jihatdan doimiy ravishda o'sib bormoqda. Tumanda jami mehnat resurslarining soni 72103 kishi yoki tuman aholisining 60,2% ini tashkil etadi. Qishloq joylarda shaharga nisbatan mehnat resurslari bilan ta'minlanishi yuqori.

Umuman olganda, Xo'jayli tumani mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasini aniqlash uchun tuman aholisining o'sish dinamikasini har taraflama o'rganish, tuman miqyosida oldagi vazifalarni yechish orqali tumanning qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga katta yo'l ochadi.

Jadvaldan ko'rinib turganidek asosan mehnatga yaroqli aholi fermer xo'jaliklarida bandligini va bundan tuman aholisining ko'pchiligi qishloq xo'jaligi sahosida ishlaydi degan xulosaga kelsak bo'ladi.

Aholi umumiy sonidagi ishga yaroqli shaxslarning jamoatchilik ishlab chiqarishda band bo'lmaganlar soni 17102 kishi. Jamoatchilik ishlab chiqarishda band bo'lgan ishga yaroqsiz shaxslar soni 520 kishi.

Iqtisodiyotda band bo'lgan aholi soni 55078 kishini ya'ni umumiy aholining 46,0 foizni tashkil etadi. Xalq xo'jaligida band bo'lganlardan 3397 kishi qishloq xo'jaligida 2971 kishi sanoatda, 1590 kishi qurilishda, 2089 kishi savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida band.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida xususiy tadbirkorlikka, kichik va o'rta biznesga imkoniyatlar yaratiladi, buning natijasida aholi bandligining yangi shakllari va turlari vujudga keladi va rivojlanadi.

Jumladan, mustaqillik yillarida mahalliy tadbirkorlarning chet mamlakatlarga mehnat safarlari kengaymoqda. Ayniqsa, qo'shma korxonalarning vujudga kelishi, ularda ishlashi uchun zarur mutaxassislarining malakasini oshirish va boshqacha ishchi kuchini vujudga keltirishga imkon beradi. Hozirgi kunda Xo'jayli tumanidan ham yosh ishchilar Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya mamlakatlari bilan qo'shma korxonalarda mehnat qilishmoqda. Tumanda kasanachilikka ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu yangicha bandlik muammosini echish yo'llaridan biri hisoblanadi.

II.4. Tuman transport-iqtisodiy aloqalari va uning agrosanoat kompleksining rivojlanishiga va geografik joylashishiga tasiri

Xo'jayli tumani Qoraqalpog'iston Respublikasining transport – iqtisodiy va tabiiy jihatdan qulay bo'lgan joyda joylashib, respublikaning iqtisodiy potensialida yuqori ulishni egallaydi. Xo'jayli xalq xo'jaligi sohalarining rivojlanishi erta davrlardan boshladi. Lekin, Qoraqalpog'istonning iqtisodiy rivojlanishiga xos tendentsiyalar Xo'jayli tumanining iqtisodiy rivojlanishiga ham to'sqinlik yasadi.

Transport xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlaridan hisoblanib, o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ulardan xalq xo'jalik yuklarini, yo'lovchilarni bir o'rindan ikkinchi joyga o'z vaqtida yetkazib berish transportning maxsuloti hisoblanadi. Transport tizimini rivojlantirish hozirgi davrda katta xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. Chunki, har bir tuman, viloyat, respublika eng avvalo transport tarmoqlarini rivojlantirmay turib, xalq xo'jaligini rivojlantirish va tumanlar-aro va tuman ichidagi xo'jaliklar-aro aloqalarni rivojlantirish mumkin emas.

Shu sababdan Xo'jayli tumani transporti xalq xo'jaligi uchun kyerakli bo'lgan moddiy mahsulotlarni olib kelishda va chetga chiqarishda va taqsimlashda muhim o'rin tutadi. Shu uchun transport tizimining rivojlanishi xalq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga qulay sharoit tug'diradi.

Tumanga keladigan asosiy yuklarga engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, qurilish materyiallari, aholi istemol mollari, va x.k qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun mineral o'g'itlar, yoqilg'i, qishloq xo'jaligi texnikalari uchun ehtiyot qismlar transport tizimi orqali olib kelinadi.

Tumanning zamonaviy talabga javob beradigan transporti manevrli avtomobil transporti hisoblanadi. Tumanning barcha xo'jaliklari avtomobil transporti orqali tutashgan.

Xo'jayli tumani avtomobil transporti orqali respublikamiz poytaxti Nukus shahri bilan Shuningdek, Nukus orqali, Taxiatosh tug'oni va Amudaryoga qurilgan yangi ko'prik orqali chap qirg'og'idagi Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha tumanlar bilan transport-iqtisodiy aloqalar olib boradi.

Tuman hududidan Nukus – Qo'ng'iro't - Beynov avtomobil yo'lining va mahalliy, shuningdek, xalqaro (Moskva-Dushanbe, Toshkent-Volgagrad, Toshkent-Saratov) temir yul liniyalarining o'tishi tumanda transport tizimining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Xo'jayli tumani kickina hududni egallagani bilan, transport liniyalari ustida joylashganligi katta ahamiyat kasb etadi. Tuman buyicha umumiy asfaltlangan yullarning uzunligi 453 km.ni tashkil etadi.

Tuman transportida eng ko'p tashiladigan yuklarga qishloq xo'jaligida etishtiriladigan mah'sulotlar paxta, g`alla, sholi, savzovot, poliz, go`sht – sut, qurilish materiyallar va h.k. kiradi.

Har bir regionning, tumanning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida transport tizimi odamda qon tomiri singari muhim o'rin tutadi. Sababi qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va ularni tayyorlash va h.k. uskunalarni bir joydan ikkinchi joyga yetkazish transport tarmoqlari yordamida amalga oshiriladi.

Lekin hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi qiyinchiliklar tumanning iqtisodiy ko'rsatkichlarining pasayishiga, sanoat tarmoqlari mah'sulotlarining kamayishi dehqonchilik tarmoqlaridan olingan daromadlarning kamayishi tumanning transport tizimida katta salbiy tasir ko'rsatmoqda.

Xojayli tumani transport tizimida temir yul transportining ham o'zni katta. Temir yul transporti asosan chetdan keladigan va chetga chiqariladigan yuklarni va yulovchilarni tasishda muhim rol uynaydi.

Tuman qishloq xo'jaligini rivojlantirishda dehqonchilikda foydalaniladigan qishloq xo'jaligi texnikalari bilan taminlanishi ham muhim o'rin tutadi.

Tumanda qishloq xo'jaligi traktorlarining tayyor bo'lmaganligining asosiy sabablaridan ehtiyot qismlarning yetishmasligi va ularning qimmatligi bilan ifodlanadi. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda salbiy tasir ko'rsatmoqda.

Tumanning tashqi aloqasida eksport va import aylanmasini 9-jadvaldan ko'rish mumkin.

9-jadval

Xo'jayli tumani korxonalarining eksport va import operatsiyalari (2017 yil yakunlari buyicha)

(ming AQSh dol)

Eksport jami:	5806,5
shundan:	
-paxta momig'i (volokno)	896,2
-ip kalava	3146,6
-boshqa mah'sulotlar	1763,7
Xududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan eksport jami	1516,3
Import jami:	2388,6

Jadval Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti asosida ishlab chiqildi.

9-jadvaldan ko'rinib turganidek jami eksport ko'lam 5806,5 ming AQSH dollariga teng bo'lib, uning asosiy qismi (69,6% ni) agrosanoat mahsuli bo'lgan paxta momig'i va paxta ip kalavasi mahsuloniga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek,

yana achinarlisi, hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan amalga oshirilgan eksport 1516,3 ming dolarni tashkil etib, unga barcha eksportning atiga 26,1 % tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganimizda qishloq xo'jaligi texnikalaridan samarali foydalanish bilan birga qishloq xo'jaligining samaradorligini orttirish evaziga yangi texnika va texnikalarga extiyot qismlarini yangilab borish muhim o'rin tutadi. Sababi bozor iqtisodiyoti davrida eski davlat tamonidan taminlash emas, har bir xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish orqali, etishtirilgan mahsulotlarni sotish va tushgan daromad evaziga tuman xo'jaliklarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash muhim o'rin tutadi.

Xo'jayli tumani Qoraqalpog'iston Respublikasining transport – iqtisodiy va tabiiy jihatdan qulay bo'lgan joyda joylashib, respublikaning iqtisodiy potensialida yuqori ulishni egallaydi. Xo'jayli xalq xo'jaligi sohalarining rivojlanishi erta davrlardan boshladi. Lekin, Qoraqalpog'istonning iqtisodiy rivojlanishiga xos tendentsiyalar Xo'jayli tumanining iqtisodiy rivojlanishiga ham to'sqinlik yasadi.

III-BOB. TUMAN AGROSANOAT KOMPLEKSLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

III.1. Agrosanoat kompleksining zarurligi, vazifalari va tarkibi

Respublikamiz erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishi taminlanayotgan yillarda mamlakat aholisi soni o'smoqda. Shu bilan birga sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlariga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Bu har bir tumanda xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari va xalq istemoli mollari ishlab chiqarish rivojlantirilishini taqoza etmoqda. Bu muammolarni echish uchun eng avvalo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish hamda qayta ishlash tarmoqlarining mutonasib ravishda rivojlanishini taminlashga erishish, so'ngra tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va ularni istemolchilarga etkazuvchi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini taminlashi lozim.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i hamda yog'lovchi materiallar, qurilish materiallari, ozuqa moddalari bilan to'liq va mutanosib ravishda taminlab, mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita, shuningdek agrar sohaning ravnaqi unga xizmat ko'rsatuvchi, yani qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan taminlovchi, tarmoqdagi mashina-traktor va boshqa texnikalarni tamirlovchi, xo'jalik obektlarini quruvchi, irrigatsiya-melioratsiya va kimyo, transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga ham bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga esa tarmoqda etishtirilgan xomashyolardan aholining barcha talablarini to'liq va sifatli qondira oladigan oziq-ovqat, gazlama, kiyim bosh, oyoq kiyim va boshqa maxsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining serqirrali faoliyatiga ham bog'liq.

Agrosanoat kompleksida maqsadga erishish quyidagi asosiy vazifalar echilishini taqozo etadi:

- agrosanoat kompleksi tarkibidagi barcha tarmoqlar maqsadga muvofiq holda tashkiliy, texnologik, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'zaro uzviy bog'lanishini taminlash;

- kompleks tarkibidagi korxonalarni barcha omillarni etiborga olgan xolda maqsadga muvofiq oqilona joylashtirish;

- ularning ixtisoslashtirilishi va integratsiyalashuvini taminlash;

- samarali faoliyat ko'rsatishni taminlash maqsadida barcha korxonalarni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, ularda ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

- agrosanoat kompleksi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, mehnat) tadbirkorlik bilan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashtirish orqali doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni kamaytirib, ekologik talablarga javob beradigan mahsulotlarni zarur miqdorda ishlab chiqarish, ularni istemolchilarga etkazib berib, ko'proq foyda olishni taminlash;

- agrosanoat kompleksi tarkibidagi korxonalar o'rtasida ular mahsulotlarini o'zaro samarali ayirboshlashi taminlanadigan narxlarning maqsadga muvofiq miqdorini malum muddatlarga belgilash;

- kompleksda xizmat ko'rsatayotgan rahbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular mehnatlarining miqdoriga, pirovard natijasiga ko'ra rag'batlantirishni rivojlantirish va boshqalar.

Agrosanoat kompleksi maqsad va vazifalaridan kelip chiqqan holda uning tarkibi quyidagi 4 ta bo'g'indan tashkil topishi mumkin¹:

1-bo'g'in- agrosanoat kompleksi tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlaridir.

2-bo'g'in agrosanoat kompleksining asosiy tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligidan tashkil topadi. Uning barcha tarmoqlari-o'simlikchilik hamda chorvachilik tarmoqlarida sanoat tarmoqlari uchun xomashyolar (paxta xomashyosi, boshqoli donlar, kanop, zig'ir, jun, teri, kunjut, uzum) aholi istemoli uchun esa go'sht, sut, sabzavot, poliz, meva mahsulotlari etishtiriladi.

3-bo'g'in qishloq xo'jaligini tashkil etish hamda uning rivojlanishiga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar, jumladan ekinlarni, chorva hayvonlarini suv bilan taminlaydigan, erlarning meliorativ holati yaxshilanishini tamin etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo'jaligi tarmog'i; qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan barcha texnikalarga servis xizmati ko'rsatadigan tarmoq; tarmoqqa zooveterinariya xizmati, shuningdek, xashoratlarga, zararkundalarga, begona o'tlarga qarshi qurashish maqsadida kimyoviy xizmat ko'rsatadigan sohalarni o'z ichiga oladi.

4-bo'g'inga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va istemolchilarga etkazib beruvchi tarmoqlar, jumladan, paxta tozalash, donni, go'sht va sutni, tamakini, sabzavot va poliz mahsulotlarini, meva, uzumni qayta ishlash, engil va boshqa sanoat tarmoqlari; bozor talabini etiborga olgan xo'lda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda etkazib beradigan savdo tarmoqlari kiradi.

Agrosanoat kompleksini barqaror rivojlantirishda mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalarning ham ahamiyati, tasiri ulkan. Ular agrosanoat kompleksi tarkibidagi barcha tarmoqlarning rivojlanishini taminlash maqsadida bank, sug'urta, investitsiya, soliq, lizing, sog'liqni saqlash,

¹ Набиев Э., Қаюмов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т.: Университет, 2000

talim-tarbiya, manaviy, madaniy, sanat, kommunal xizmatlarni amalga oshiradilar. Shuning uchun barcha komplekslar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro manfatli holda amalga oshirilgani maqul.

Qishloq xo'jaligida etishtiriladigan mahsulotlarni nobud etmasdan vaqtida, sifatli tayyorlab, qayta ishlab, tayyor mahsulotlar istemolchilarga etkazib berilishini taminlash lozim. Bunda mahsulotlarni sotib olib qayta ishlash korxonalari ko'lamini rivojlantirishga alohida etibor berish, respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganlaridek, qishloqqa sanoatni olib borish kerak¹. Shu bilan tarmoqdagi aholining ish bilan taminlanishi, real doromad olish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi.

Bu tadbirlar tufayli aholining oziq-ovqat va nooziq-ovqat hamda istemol tovarlari bilan taminlanishiga erishiladi.

III.2.Tuman yer-suv resurslari, undan qishloq xo'jaligi va agrosanoat komplekslarida samarali foydalanish yo'llari

Quyi Amudaryo rayonining, shu jumladan Xo'jayli tumanining tuprog'i tumanning asosiy ixtisoslashgan tarmog'i bo'lgan paxtachilikni va shu majmuaga kiruvchi dehqonchilik tarmoqlarining rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Sababi, paxtachilik va dehqonchilikning boshqa tarmoqlaridan olinadigan hosil miqdori dastavval, tuproq qatlamining strukturasiga, unimdorligiga, chirindi boyliklariga, shuningdek, gumusga, yuksak agrotexnika texnologiyasi asosida olib boriladigan o't-dala almashlab ekish sistemasiga chambarchas bog'liqdir. Agar tuproq qatlami strukturasiz, unumsiz, gumusga kambag'al va tuproqning ximik va fizik xususiyatlari emon bo'lsa, dehqonchilik tarmoqlaridan olinadigan hosilning miqdori kam va sifatsiz bo'ladi.

Tumanda tuproq hosil bo'lishi protsessida tumanning tabiiy sharoitlari va Amudaryoning ishi katta rol o'ynaydi. Xo'jayli tumani tuprog'i yuqorida qayd

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент, «Ўзбекистон» НМИУ, 2017

qilinganidek minglab yillar davomida Amudaryo o'zi bilan olib kelgan allyuvial jinslardan paydo bo'lgan.

Allyuvial tuproqlar, aslida strukturali unumdor, fizik va ximik tarkibi qulay bo'lgan tuproqdan iborat. Lekin asrlar davomida bu etqiziqalar ustida paydo bo'lgan allyuvial tuproqlarga, yoki bo'z tuproqlarga ishlov berish, ekin maydonlarini planirovka qilish, go'ng va mineral o'g'itlar bilan o'g'itlash va erlarni natijasida bu tuproqlar unumdor, strukturali, madaniy tuproqqa aylantirilgan. Ammo turg'unlik yillari, paxta yakkahokimligi yillarida tuman ekin maydonlarini qish oylarida, suv tanqisligi sababli erlar suvga bostirib qo'yilishi natijasida, tuproq qatlami strukturasiz, unumsiz tuproq holatiga kelib qolgan.

Xo'jayli tumani tuproqlari ikki turga bo'linadi. Shundan birinchisi, avtomorfli tuproqlar bo'lib, unga taqir tuproqlar va taqirlar kiradi. Bunday tuproqlar er osti suvlari chuqur joylashgan erlarda bo'lib, bu tuproqlarning roli katta. Ikkinchi tuproq tipi gidromorfli tuproqlar bo'lib, ularning er osti suvlarning tasiri katta. Mana shu tuproq tuman territoriyasida keng tarqalgan tuproqlardan hisoblanadi.

Xo'jayli tumani, butun Amudaryo deltasi Turon ichkarisida berk basseynida joylashgan. Uning keskin kontinental qurg'oq subtropik iqlimi, er usti va er osti suvlarining paydo bo'lishi, ularning hayoti va territoriya bo'ylab joylashishiga tasir etuvchi faktorlardan hisoblanadi.

Amudaryo katta deltasining, shuning ichida, Xo'jayli tumanining eng katta va birdan-bir suv bilan tamin etuvchi manba Amudaryo hisoblanadi. U ushbu hududdagi yer usti va yer osti suvlarining rejimiga to'g'ridan-to'g'ri tasir etadi. Hatto, u tuman xalq xo'jalik tarmoqlarining rivojlanish darajasini aniqlovchi faktorlardan biri hisoblanadi.

Amudaryo Turonning eng katta daryosi hisoblanib, u Hindiqush tog'ining shimoliy en bag'ridan 4900m balandlikdan boshlanadi. Uning asosiy irmoqlaridan biri Pomir-Oloy tog'laridan boshlanadi. Pomir-Oloy tog'i O'rta Osiyodagi eng baland yog'in-sochinga boy tog' hisoblanadi. Shuning uchun

Amudaryo basseyni Turon cho'l zonasida joylashishiga qaramasdan u juda suvga boy ekanligi to'satdan emas. Amudaryo dastavval boshlanish joyda Vaxjir, so'ngra Vahangdaryo deb atalib, Pomir daryosi bilan qo'shilgandan keyin Panj deb ataladi. Panj Vaxsh darsi bilan qo'shilgan erda Amudaryo nomini oladi. Amudaryoning Vaxjir-Vaxangdaryo-Panj qismi 1137 km uzunlikka ega bo'lib, u shu oraliqda bir qancha irmoqlarni (Gunt, Bartan, Ezg'ulom, Vanch, Qizilsu o'ng tomonida, Ko'kcha daryosi-chap tomonda) o'z ichiga qo'shib oladi. Panj Vaxsh daryosi bilan qo'shilgandan keyin Amudaryoning eng katta o'ng tomondagi tarmoqlari Kofirnigon, Surxondare va Sherobod, chap tomonda Qunduzdaryo oqib o'tadi. Amudaryoning qolgan qismida (1257 km davomida) u o'z ichiga boshqa tarmoq qo'shib olmaydi. Amudaryoning umumiy uzunligi 2574km ga teng. Amudaryo o'zining quyi qismida bir qancha delta paydo qilib oqadi. Amudaryoning eng dastlabgi deltasi Tuyamo'yin rayonidan boshlanadi. Amudaryo Tuyamuyindan Orol dengizigacha quyguncha qadim zamonlardan beri bir qancha katta-kichik deltalarni paydo qilgan. Amudaryo o'zining delta qismida bir qancha tarmoqlarga bo'linib ketadi. Shulardan eng kattalari Aqchadaryo, Ko'nadaryo, Daryolik, Erkindaryo, Qozoqdaryo, Ko'ksuv, Ullidaryo, Oqdaryo, Qipchoqdaryo, Injenero'zak hisoblanadi. Amudaryoning tog'li qismidagi suv yig'ish havzasining maydoni 199,3 ming km² ga ega. Bu maydoning asosan Pomir-Oloy tog' sistemalari joylashgan erlarga to'g'ri keladi. Ularning o'rtacha absolyut bolandligi dengiz sathidan 5000-5500m bo'lsa, ayrimlarining balandligi 6000 m, hatto 7000 m yuqorida joylashgan. Amudaryoning asosiy tarmoqlari (Panj, Vaxsh, Ko'kcha va boshqalar) muz-qor suvlaridan oziqlanadi. Tog'larning pastki qismlaridan boshlanadigan tarmoqlari (Qunduzdaryo, Kofirnigon, Qizilsuv, Surxondaryo va boshqalar) qor muz suvlaridan to'yinadi.

Umuman Amudaryo basseynining tog'li qismida har yili 79 km³ suv yig'adi. Shuning 1960-yillargacha Amudaryodan har yili o'rta hisobga ko'ra Kerki shahri enidan 63 km³, Nukus shahri enidan esa 46,6 km³ suv oqib o'tgan.

Amudaryoda har yili ikki marotaba suv toshqini qayd qilinib, shundan birinchisi bahorda tog'larning past en bag'ilaridagi qor, bahorgi eg'in-sochinlarning bo'lishi natijasida, ikkinchisi ezning issiq oylariga to'g'ri kelib, iyul va avgust oylarida tog'larning baland qismlaridan muzliklarning, qorlarning erishi natijasida yuz beradi. Ilgari Amudaryo yuqori tog'li qismida va o'rta qismida to'g'onlar va suv elektr stantsiyalari qurilishi natijasida jilovlanmasdan oldin Amudaryodagi bahorgi va yozdagi suv toshqinlari Quyi Amudaryo rayoniga, ayniqsa Xo'jayli va Beruniy tumanlari qirg'oqlarini suv bosib ketishi natijasida katta zarar keltirar edi. Mana shuning uchun Quyi Amudaryo rayonida, shu jumladan, Xo'jayli tumanida tumanni suv toshqinidan saqlash uchun daryoning ikki qirg'og'ida bir necha kilometr ga cho'zilgan dambalar qurilgan edi. Suvning ayrim xavfli joylarida bu dambalar ikkita qilib qurilgan edi. Lekin 1960-yillardan keyin Amudaryoning yuqori va o'rta oqimida to'g'onlarning qurilishi natijasida suv toshqini tugatildi. Hatto Amudaryoda 60-yillargacha bahorda daryo muzining janubdan erib kelishi va qish oylarida shimoldan-janubga tomon muzlashi natijasida daryoda, ko'pincha uning tor yerlarida oqib kelgan muzlar, suvlar natijasida muz tiqinlari bo'lib, buning natijasida muz to'g'oni oldida daryo sathi baland ko'tarilib, daryo bo'ylaridagi joylashgan yerlarni suv bosib ketar edi. Shunday suv bosishi natijasida 1969-yili bahorda daryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Beruniy shahrini suv bosdi. Natijada shaharni qaytadan qurishga to'g'ri kelgan. Bundan noqulay oqibatlar yuqorida qayd etilgan daryoda inshootlarning qurilishi natijasida butunlay yo'q etildi.

Qish oylariga kelib Amudaryo suvi juda kamayib ketadi. Sababi qishda faqat yer osti va buloq suvlari bilan oziqlanadi. Umuman Amudaryoning bahor va yoz oylarida sersuv bo'lishi uning basseynida joylashgan xo'jaliklar uchun qulayli sharoit tug'diradi. Sababi, Amudaryo suvi bahor va yoz oylarida paxtachilik uchun suv eng zarur vaqtda daryo sersuv bo'lib qulayli sharoit tug'diradi. Amudaryo dunyodagi suvi loyqaga eng boy daryolardan hisoblanib, uning har bir m^3 suvida 2-4 kg gacha loyqasi bor. Sababi, Amudaryo O'rta

Osiyodagi eng baland tog'lardan boshlangani va qirg'oqlarini emiradi. Bu Amudaryo suvini juda loyqalatib yuboradi. Daryo tekislikka chiqqandan keyin Qoraqum va Qizilqum qirg'oqlarini emirib darenini yana loyqalatib yuboradi. Sababi Qoraqum va Qizilqum qirg'oqlari bo'sh allyuvial jinslardan iborat. Suvning loyqasiga Kerki shahrining enida har bir m^3 suvga 4kg dan ortiq loyqa to'g'ri keladi. Loyqa suvlar ko'pincha bahorda va yoz oylarida suv toshqini paytida ko'proq bo'ladi. Amudaryo loyqasi bu qimmat baholi o'g'it xisoblanib O'zbekiston olimlarining fikricha har bir gektar erga o'rtacha 2 tonnaga yaqin uglikisliy-kaltsiy, kaliy, fosfor va xilma-xil ximik eritmalarini olib keladi. Shuningdek, Amudaryo suvida ximik elementardan osh tuzi, Glauber tuzi, soda va hakoza uchraydi. Hozirgi vaqtda Quyi Amudaryo rayonida To'yamo'yin suv omborining qurilishi natijasida tuman dalalariga loyqa juda kam miqdorda chiqadi. Sababi Tuyamuyin suv ombori maksimal 7,8 mlrd. m^3 Amudaryo suvi uchun tiniqlatuvchi havza hisoblanadi. Bu yerda Amudaryoning yuqori oqimidan oqib kelgan loyqalar tinib, undan quyi oqimida joylashgan yerlarga kam loyqa olib boriladi. Lekin To'yamuyinning pastrog'ida qirg'oqlarini «deygish» urishi natijasida Amudaryo suvi yanada ko'proq loyqalanadi. Hozirgi Amudaryo deltasining suvini tiniqlatib turuvchi yana bir inshoot Taxyatosh tug'oni hisoblanadi.

Amudaryo qish oylarida muzlaydi, uning qalinligi yanvar, fevral oylarida 30-40 sm gacha etadi. Qishning issiq va sovuq kelishiga bog'liq muzning qalinligiyam turlicha bo'ladi. Tumanda Amudaryodan suv oluvchi bir qancha kanallar qurilgan.

1. Davlat ichidagi magistral kanallardan. Suenli va Paralel kanallari.
2. Xo'jaliklararo kanallar, Tosh'yob, Arg'inbaev, Xatep, Ivan jap, Hayranli, Toshkent jap, Tu'rkmén jap va h.k.
3. Xo'jalik ichidagi kanal, yop va ariqlar.

Tuman hududining ayrim joylari shurhoklashgan tuproqlardan iborat. Shuning uchun tumanning ekin maydonlarini tez-tez yuvib, ularning sho'rini tashqariga chiqarish lozim, mana shu maqsadda tumanda bir necha yuz km

uzinlikdagi o'nlab kollektor-drenaj sistemalari o'tkazilgan. Kollektor sistemalari tuman xududidagi yer osti suvlari sathini pasaytirishga va uni sug'oriladigan maydondan boshqa yerga haydash imkonini beradi. Bundan tashqari yopiq drenajlar ham mavjud.

Tuman territoriyasida kollektor drenaj suvlarini oqizish natijasida maydoni uncha katta bo'lmagan o'nlab ko'llar paydo bo'lgan. Tumanda 7 ta ko'l mavjud. Bularga Tubako'l, Xo'jeli gavhari, Xo'jeli sumbili, Ko'kiyrim, Filanoy va h.k. kiradi. Bundan tashqari Amudaryo bo'yida, qayirlarda paydo bo'lgan kichik ko'llar mavjud. Ularning maydoni Amudaryo suvining ko'payishi va kamayishiga bog'liq tez-tez o'zgarib turadi.

1960-yillardan boshlab Amudaryoning yuqori oqimlarida millionlab gektar erlarni ochish, ularni o'zlashtirish uchun gidrotexnik inshootlarni qurish va ularning oldidagi katta hajmdagi suv omborlarini qurish natijasida, shuningdek Amudaryo, Qoraqum kanalining qurilishi va bu kanal bo'yida bir qancha suv omborlarining qurilishi, Amu-Buxoro va Amu-Qarshi kanallarining qurilishi, shu jumladan Quyi Amudaryo rayonida 7,5 mlrd m³ hajidagi suvni saqlab turuvchi Tuyamo'yin to'g'onining qurilishi natijasida, Quyi Amudaryo regionida, shuning ichida Xo'jayli tumanida suv tanqisligi muammosini keltirib chiqardi.

Amudaryodan oqib keluvchi suvlarning kamayishiga bog'liq Quyi Amudaryo regionida ichimlik suv masalasi ham katta muammo bo'lib qoldi. Sababi, daryoning yuqori oqimidan qishloq xo'jaligida ishlanib chiqqan drenaj va oqava suvlarni, shuningdek ayrim zavodlardan chiqqan oqova suvlarni Amudaryoga quyilishi natijasida uning suvi 1980-yilning boshlarida ichib bo'lmaydigan darajada turli o'nlab, yuzlab tonna zaharli tuzlarni, ximik elementlarni suv bilan oqib kelishi natijasida, Quyi Amudaryo rayonida shu zaharli pestitsidlarga boy bo'lgan suvni aholining foydalanish natijasida aholi salomatligiga katta zarar keltirgan.

Yuqorida qayd etilgan zaharli ximik elementarga boy bo'lgan suvlarni istemol qilish, shuningdek, Oroldan bo'shagan yerlardan shimol yo'nalishida

esgan shamollar tasirida millionlab tonna zaharli changlarning Xo'jayli tumani territoriyasiga ham olib kinishi natijasida tuman aholisining turli kasalliklarga chalinishiga olib keldi. Shular jumlasidan buyrak, o't xalta, jigar va tish toshi kasalliklari bilan birga gipatit kasalligi, astma, o'stma (rak) va dam olish organlari kasalliklarining kelib chiqishiga olib keldi.

Shuningdek, region ekologiyasining buzilishi Quyi Amudaryo rayoni aholisi ichida ko'pincha hamilador ayollar orasida 97,5% ga yaqini kam qon (anemiya) kasalligi bilan kasallangan.

Malumotlarga ko'ra Amudaryodan yoz oylarida har bir metr suvda 0,6-0,9 gramm, qish oylarida, suvning kam vaqtida har bir metr suvda 2,5gramm gacha zaharli tuz eritmalari bo'lganligi aniqlangan.

Mana shunday bir og'ir ekologik inqiroz sharoitida Quyi Amudaryo aholisini ichimlik suvi bilan tamin etish va zaharli ximik elementlardan zaharlanib turli kasallarga duchor bo'lishini hisobga olib, O'zbekiston hukumati tamonidan Quyi Amudaryo aholisini ichimlik suvi bilan tamin etish masalalarini kun tartibiga qo'yilgan.

III.3. Xo'jayli tumanining sanoat sohalarining geografik joylashishi va uning agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasiri

Tumanning asosiy sanoat sohalari qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari birinchi darajali qayta ishlab chiqaradigan sanoat sohalari mahsulotning yarimidan ortig'ini yetishtiradi. Bular qatoriga Xo'jayli paxta tozalash, "Turan-Xojeli" aksionerlik tashkilotlari, Qurilish materiallari ishlab chiqarish birlashmasi, Xo'jayli g'isht zavodlari, sutni qayta ishlash zavodi, g'o'sh kombinati ishlab chiqarish korxonalarini kiritisa bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan sanoat korxonalarining ayrimlari Qoraqalpog'istonning boshqa ma'muriy hududlari uchun ham ahamiyatga ega.

Tumanda paxta tozalash zavodi, tikuv – yigiruv fabrikasi, g'isht zavodi va boshqalar kabi 115 korxonalar mavjud bo'lib, shulardan ko'pchiligi nodavlat korxonalardan iborat. Chet el investisiyasi asosida ishlayotgan 5 korxona ruyxatga olingan. Bu ko'rsatkich albatta juda past ko'rsatkich. Bunday korxonalar qatoriga "Xo'jayli agrosanoat markazi" MCHJ ni kirgizsak bo'ladi.

10-jadval

Xo'jayli tumanining sanoat tarmoqlari ko'rsatkichlari

Kursatkichlar	2016 y	2017 y	2016 yilga nisbatan o'sish, %
Jami korxonalar soni	112	115	102,7
shundan:			
-yirik korxonalar	2	2	100
-kichik korxonalar va mikrofirmalar	110	113	100,8
Sanoat mah'sulotlari ishlab chiqarish h'ajmi, mln.swmda			
-h'aqiqiy bah'olarda	277577,9	303639,5	109,4
-taqqoslama bah'olarda	279214,7	297333,7	106,4
shu jumladan yirik korxonalarda ishlab chiqarilgan mah'sulot h'ajmi:			
"Xo'jayli paxta tozalash" AJ			
-h'aqiqiy bah'olarda	65289,1	74255,3	113,7
-taqqoslama bah'olarda	65443,9	73903,1	112,9
"Turon Xojeli" AJ			
-h'aqiqiy bah'olarda	36772,8	46751,5	127,1
-taqqoslama bah'olarda	38190,3	46322,1	121,3
Ah'oli jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mah'sulotlari h'ajmi, ming swmda	2336,5	2536,7	108,6
Xalq istemol mollari ishlab chiqarish h'ajmi, mln.swmda	190370,8	200273,5	105,2
Ah'oli jon boshiga ishlab chiqarilgan xalq istemol mollari h'ajmi, ming swmda	1602,4	1673,1	104,4

Jadval Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasprti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

U korxona Meva-sabzavot mah'sulotlarini etishtirish, saqlash va qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Korxonaga kerakli anjomlar Xitoy, Turkiya, Belgiya, Koreya davlatlaridan olinib kelinmoqda. Uning yillik ishlab chiqarish quvati 10000 tonnadan iborat. Ochilgan korxona hisobidan 150 kishi ish bilan band bo'ladi.

Tuman paxta tazolash zavodida paxta chigitdan ajratiladi, paxta tozalanadi tola va chigit holiga keltiradi. Tolaning bir qismi foydalaniladi. Ko'pchilik qismi davlat eksport kompaniyalari orqali xorijiy davlatlarga eksport qilinadi.

Tumanda keyingi – yillarda O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan keyin ipak va gazlamalarni to'qish ancha rivojlandi. Bu sohalarda ko'pincha xotin – qizlar ishchi resursleri hisoblanadi.

Yengil sanoatning eng yirik korxonasi «Xojelitekstil», “Turon Xojeli” to'quv – yigiruv fabrikasi hisoblanadi. Bu fabrika paxta tozalash, paxta tolasini yigirish, to'qish, bo'yash va pardozlash ishlarini amalga oshiradi.

Tumanning oziq – ovqat sanoati mahalliy xom ashyo bazasiga asoslanib ishlaydi. Yangi texnologiya bilan jihozlangan, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kichik korxonalar go'sht, sut, sabzavot, poliz va boshqa xom ashyolardan tayyor mahsulot ishlab chiqaradi.

Tuman elektr energiyasiga bo'lgan talabini boshqa tumanlar qatori Taxiatosh elektrostantsiyasi GRES idan oladi. Tuman elektr energiyasi bilan 100 foiz ta'minlangan.

Aholining gaz bilan ta'minlanish darajasi hozirgi kunda 93,2 foizni tashkil etadi. Xo'jayli tumani bo'yicha gaz tarmoqlarining uzunligi 848 kilometrni tashkil qilib, 378 dona gaz taqsimlash punktlari mavjud.

Tumanning ijtimoiy sohalaridagi rivojlanishlar shartli turda uning aholiga hizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi bilan bog'lik bo'ladi. Tumanda hozirgi kunda 3 ta bolalar musiqa maktabi, 2 ta istiroh'at va madaniyat bog'lari, 1 ta stadion, 1 ta suv basseyni, 46 ta sport zallari, 30 ta futbol maydonchalari, 1

ta bolalar va o'smirlar sport maktabi ishlab turmoqda. Barcha sport turlari bilan doimiy shug'ullanuvchilar soni 2288 kishini tashkil etadi.

Hozirgi kunda Xojayli tumanida 42 umumtalim maktablari bor bo'lib ularda 1 896 o'qituvchi faoliyat yuritib, 18674 o'ta o'quvchi bilim olmoqda. Shunigdek tumanda 2 maxsus maktab internatlar ham ish olib bormoqda. Kasb-hunar bilim yurtlari soni 6 tadan iborat, ularda 336 o'qituvchi ishlab, 4769 o'quvchi bilim olmoqda.

Ijtimoiy soh'a sifatida sog'liqni saqlash soh'asi alohida ah'amiyat kasb etadi. Tumanda jami 2 ta kasalxona mavjud bo'lib, ulardagi koykalar soni 340 ta. Bu 120 mingga yaqin ah'oli uchun etarli emas. Shifokorlar soni 205 ta, lekin ular ham tumanning olis qishloqlarida etishmaydi.

Umuman, Xo'jayli tumani iqtisodiy – geografik tomondan ham, tabiiy – geografik tomondan ham qulay o'rinda joylashgan. Tumanning tabiiy resurslari, sharoitlari, iqtisodiy tomondan rivojlanishiga keng yo'l ochadi. Uning sanoatining bundan keyingi rivojlanishi uchun juda ko'p imkoniyatlar bor.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tishi ta'minlanayotgan – yillarda aholisi soni o'smoqda. Shu sababli, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab ham oshib bormoqda. Bu o'z navbatida har bir tumanda xomashyo, oziq – ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishini rivojlantirishini taqozo etmoqda. Bu muammolarni yechish uchun eng avvalo qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan tarmoqlarni mutonasib ravishda rivojlanishini ta'minlashga erishish, so'ngra tayyor oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlashi lozim.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i hamda yog'lovchi va butlovchi materiallar bilan to'liq va mutanosib ravishda ta'minlab,

mustahkam moddiy – texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar faoliyatiga, shuningdek agrar sohaning ravnaqi unga xizmat ko'rsatuvchi, yani qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, tarmoqdagi mashina – traktor va boshqa texnikalarni tamirlovchi, xo'jalik obektlarini quruvchi, irrigatsiya – melioratsiya va kimyo, transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga ham bog'liqdir.

III.4. Xo'jayli tumani qishloq xo'jaligi sohalarining geografik joylashishi va uning agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasiri

Mamlakat qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida chorvachilik tarmoqlarining o'ri va ahamiyati katta. Unda inson salomatligi va qayta ishlash korxonalari uchun zarur bo'lgan turli xilda mahsulotlar etishtirilmoqda. Amalga oshirilgan islohatlar natijasida tarmoqda nodavlat mulkchilik shakllantirildi.

Xo'jayli tumani qishloq xo'jaligi sohalari majmuasi rivojlangan tumanlardan biri hisoblanadi.

Xo'jayli tumani qishloq xo'jaligi majmuasida paxtachilik, poliz va sabzavotchilik, g'alla etishtirish, chorvachilik va pillachilik, chorva uchun em-xashak etishtirish katta rol o'ynasa, sanoat majmuasida qurilish materiallari, engil sanoat, shuning ichida to'qimachilik va tikuvchilik, oziq-ovqat sanoati majmuyi tarmoqlari rivojlangan, bundan tashqari bir necha xizmat ko'rsatish sohalari ham rivojlangan. Xo'jayli tumani agrosanoati, u agrar tumani bo'lganligi uchun, uning asosiy tarmoqlari dehqonchilikda (asosan paxtachilik), chorvachilikda, meva-uzumchilikda etishtiriladigan xom-ashyo bazasida rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulotlarni nobud etmasdan vaqtda, sifatli tayyorlab, qayta ishlab, tayyor mahsulotlar iste'molchilarga yetkazib berilishini ta'minlash lozim. Bunda mahsulotlarni sotib olib qayta ishlash

korxonalari ko'lamini rivojlantirishga alohida e'tibor berish, respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganlaridek, qishloqqa sanoatni olib borish kerak. Shu bilan tarmoqdagi aholining ish bilan ta'minlanishi, real doromad olish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. Bu tadbirlar tufayli aholining oziq – ovqat va iste'mol tovarlari bilan ta'minlanishiga erishiladi.

Xo'jayli tumani iqtisodiyotining eng asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Xalq xo'jaligining tarmoqlik tizimida tumanning qishloq xo'jaligi, asosan paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik va chorva ekinlari, meva, poliz ekinlari va h.k. muhim tarmoq hisoblanadi. Shu jumladan, xalq xo'jaligi tizimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda asosiy o'rinda paxtachilik tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Xo'jayli tumani asosan xomashyo mahsulotlarini yetkazib beruvchi tumanlar qatoriga kiradi. Tumanda agrosanoat tizimi nisbatan past darajada rivojlangan bo'lib, kelajakda tumanda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda mahalliy qishloq xo'jaligi xomashyosida ishlaydigan o'rta va kichik korxonalar, sabzovot – poliz, meva mahsulotlarini qayta ishlaydigan sexlar va keng iste'mol mollarini ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil qilish asosiy vazifa qilib belgilangan. So'nggi – yillari respublikamizda don va don mahsulotlari yetishtirishning yaxshi yo'lga qo'yilganligini hisobga olganda biz tadqiq qilgan tuman sharoitida donli ekinlarning ekin maydonlarini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Tumanning tabiiy geografik sharoiti sabzavot – poliz ekinlarini yetishtirishga qulay hisoblanib so'nggi yillarda ekin maydonlarining va hosildorligining birmuncha ortganligini ko'ramiz. Qishloq xo'jaligining rivojlanib borishini belgilab beruvchi omillardan boshqarish mexanizmini takomillashtirish ahamiyatli o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qishloq xo'jaligini isloh qilish siyosatiga bog'liq shirkat xo'jaliklari fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Qishloq xo'jaligini sifat tamondan rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligida bor bo'lgan imkoniyatlardan to'la foydalanishning ahamiyati yuqori

hisoblanadi. Bu borada dehqonchilikda paxta, g'allachilik tarmoqlari va boshqa ekinlarning hosildorligini ko'paytirishi lozim hisoblanadi. Xo'jayli tumani paxtachilikning hosildorligi bo'yicha va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha respublikamizda o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lib kelmoqda. Tuman xo'jaliklari so'nggi – yillari qishloq xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligi mashinalari, texnik vositalari va qishloq xo'jaligini boshqarish va yuritishda malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanmoqda.

Umuman tuman sanoati, qishloq xo'jaligi tumanning paxtachilikka va chorvachilikka ixtisoslashgan tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tumanda 417 fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi paxtachilik sohasini bilan shug'ullanadi.

Xo'jayli tumani respublikada yirik paxtachilikka ixtisoslashgan tumanlardan hisoblanib, umumiy ko'rsatkichi bo'yicha asosiy o'rinni egallaydi. 2017 yilda jami 20016 ga ekin maydonining 9321 ga (46,6%) paxta ekilib, 19347 tonna paxta etkazib berilgan. Tuman xo'jaliklarida yetishtirilgan paxtani qayta ishlashda Xo'jayli paxta tozalash zavodi muhim o'rin tutib, sifatli paxta tolasi tayyorlanadi.

11-jadval

Qishloq xo'jalik mah'sulotlari hosildorligi
(barcha turdagi xujaliklar buyicha, ts\ga)

Kursatkichlar	2016 yil	2017 yil	%
<i>1</i>	<i>3</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
Donli ekinlar-jami	28,1	29,4	104,6
Paxta	19,8	20,5	103,5
Kartoshka	82,0	114,5	139,6
Poliz	113,2	113,4	100,2
Sabzavot	212,1	213,6	100,7
Meva	77,8	87,0	111,8
Uzum	84,0	84,1	100,1

* Tuman statistika bo'limi malumotlari asosida tayyorlangan

Tumandagi paxtachilik va boshqa dehqonchilikdan olingan hosil ko'rsatkichlari haqidagi malumotlar 11-jadvalda to'liq ko'rsatilgan. Xo'jayli tumani hozirgi kunda 9417 ga ekin maydoniga paxta ekadi. Shundan reja 19253 tonnani tashkil etadi. Tuman 2017 yilda paxtadan gektariga 20,5 tsentner hosil olib, 19347 tonna paxta etishtirdi. Bu yillik rejaning 103,5 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yildagi ko'rsatkichlarga nisbatan 904 tonnaga ortiq.

12-jadval

Tumanda paxta etishtirish dinamikasi

№	Paxta ekini	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2016 y.	2017 y.
1	Ekin maydoni (hektar)	9640	6007	5700	19614	20016
2	Etishtirilgan paxta (tonna)	36322	19041	21022	18443	19347
3	Hosildorlik (tsentner)	18,5	11,9	13,4	19,8	20,5

Jadval Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti asosida ishlab chiqildi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rib turganimizdek, 2002, 2003 yillarda tumanda paxta ekin maydonlarining kamayishi, etishtirilgan paxta unimining pasayganligi, hosildorlik shu yillarda juda past, o'zini xarajatlarini qoplamaydigan darajada past bo'lishi, olingan doramodning ham miqdorining kam bo'lishi shu yillarda Qaroqalpog'iston Respublikasi buylab suv kamtarchiligi bo'lishi bilan bog'liq yuz berdi. So'ngi 2004, 2005 yillarda esa etishtirilgan paxtaning umumiy miqdori (6007 tonnadan 19347 tonnaga) va hosildorligi (11,9 tsentnerdan 20,5 tsentnerga) 2002 yilga nisbatan deyarli ikki baroborga oshti. 2017 yilda tuman dehqonlari davlat oldidagi shartnomalarini bajardilar.

Tumanda umumiy paxtachilik xo'jaliklari 21 tani tashkil etadi. Xo'jayli tumani ob-havosining qulayli va noqulay kelishiga bog'liq holda, paxtachilikdan olinadigan hosil miqdori yildan-yilga o'zgarib bormoqda. Paxta hosilini oshirishdagi eng asosiy omil tuman xo'jaliklarining hammasida ilg'or o't-dala almashlab ekish agrotexnikasini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu agrotexnika to'la joriy etilgan sharoitda paxtachilik va boshqa madaniy

o'simliklardan yuqori hosil olish bilan birga tuman chorvachiligi uchun to'yimli o't, o't-hashak va silos bazasini yaratish mumkin.

Tumanda paxtadan olinadigan hosil 2017 yili o'rtacha gektariga 20,5 tsentnerini tashkil etdi. Ayrim xo'jaliklar, masalan: Nayman fermerlar xo'jaligi birlashmasi 29-30 tsentnergacha paxta hosilini yuqori ko'tardi. Shuningdek Xo'jayli, Oybek, Amudaryo kabi xo'jaliklar hosildorlikni 24-26 tsentnergacha etkazdi. Oldingi yillarga solishtirganda yildan-yilga aholi soning o'sishi, shu bilan birga boshqa madaniy o'simliklarning ko'paytirishi, ularga yildan-yilga ko'proq ekin maydoning ajratilishi natijasida paxta ekiladigan ekin maydoni yildan-yilga kamaymoqda. Masalan, 1997 yilga solishtirganda doni ekinlar, paxta, sabzavot, uzumchilikka ekin maydonlari biroz kamaygan, yani kam ajratilgan. Aksincha kartoshka, poliz ekinlari va mevalar uchun ko'proq ekin maydonlari ajratilgan.

Masalan: paxtaning ekin maydoni 1997 yili 21013 gektar ekilgan, donli ekinlar 5550 gektarni, kartoshka 597 gektar maydonni, sabzavot 837 gektar maydonni, poliz ekinlari 537 gektarni, mevalar 523 gektar ekin maydonini, uzum 29 gektar er maydonini tashkil etgan. 2017 yilga kelib paxta (maydoni) 9417 gektarga ekildi, donli ekinlar 6949 gektar maydonga, kartoshka 421 gektar maydonga, sabzavot ekinlari 600 gektarga, poliz ekinlari 734 gektarga, mevalar 401 gektar ekin maydoniga, uzum esa 95 gektar maydonni tashkil etgan. Xo'jayli tumani qishloq xo'jaligining dehqonchilik maydonlarining dinamikasini 13-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

13-jadval

**Xo'jayli tumani dehqonchilik maydonlarining dinamikasi
(hektar hisobida)***

№	Dehqonchilik turlari	2001 y	2002 y	2003 y	2005 y	2017 y
1	Paxta	1640	1607	1500	1614	9417
2	Donli ekinlar	3483	3219	5035	4920	6949
3	Sabzavot	281	408	434	602	600
4	Poliz	658	664	377	445	734
5	Meva	562	466	366	381	401
6	Uzum	21	23	24	72	95

* Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti malumotlari

Dehqonchilik tarmoqlarida etishtirilgan mahsulotlar hajmiga kelsak, so'ngi 5 yilda paxta, don uchun makka, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsuloti hajmi 2003 yilga nisbatan ancha o'sishi sezilgan. Bu holat tuman hududining tekisligi bilan va shorlanishning yuqorilashi bilan tushintiriloqda.

2001, 2002 yildagi suv yetishmovchiligi tuman qishloq xo'jaligining rivojlanishiga tasir ko'rsatti. Shu bois, 2002, 2003 yillarda etishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi boshqa yillarga nisbatan kam bo'ldi. Bundan tashqari hali bu paytda xo'jaliklar yerining asl egalari bo'lmish fermerlarga tula bo'lib berilmagan edi.

Bundan tashqari tumanda donli ekinlar, kartoshka sabzavot, bog'cha, meva, uzum va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiriladi.

Qishloq xo'jaligida aholini sabzavot va poliz ekinlari mahsulotlari bilan taminlash ham hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri. Sababi, bu mahsulotlar tez ayniydigan va uni saqlash qiyinligi tufayli uni har bir xo'jalikning o'zida etishtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Xo'jayli tumanida ham bu masalaga keng etibor qaratilgan. Bu tumanning dehqonlari nafaqat o'z tumani aholisini, ular etishtirgan mahsulotlar paytaxtimiz Nukus shahri aholisiga ham tashib etkaziladi. Tumanda etishtiriladigan sabzavot va poliz ekinlarining hajmini 14-jadvaldan ko'rsa bo'ladi.

Sabzavot va poliz ekinlarining ekin maydoni va umumiy mahsulotidagi ko'rsatkichlarning har xil bo'lishiga sungi yillardagi avvalgi kolxoz, sovxozlarning jamoa xo'jaliklarga, shirkatlar uyushmasiga aylantirilishi va hozirgi paytda fermer xo'jaliklarga topshirilishi bilan ham bog'lik.

Tumanda etishtirilgan poliz, bog'dorchilik va sabzavotchilik asosida ko'pchilik xo'jaliklarda bir qancha konserva zavodlari xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqaradi. Tumanda etishtiriladigan don asosan bo'g'doy va sholiga asoslangan bir qancha un tortish, non pishirish, sholini tozalash va undan guruch olish kichik xususiy korxonalar tuman markazida va bir necha xo'jaliklarda ishlab turibdi. Tumanda qishloq xo'jalik mahsulotlari hosildorligi boshqa tumanlarga nisbatan ancha yuqori. Tuman qishloq xo'jalik mahsulotlarining,

shular qatorida donli ekinlarning, paxtaning, kartoshka, sabzavot, bog'cha, meva, uzum va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi 16-jadvalda ko'rsatilgan.

14-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish
(xo'jaliklarning barcha turlari buyicha)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2016 y.		2017 y.		O'sish %	
		ga.	tn	ga.	tn	ga.	Tn
1	2	3	4	5	6	7	8
donli ekinlar	tonna	6592	18518	6949	20408	105,4	110,2
paxta	tonna	9294	18443	9417	19347	101,3	104,9
kartoshka	tonna	547	5107	421	5163	77,0	101,1
poliz	tonna	600	8060	734	8257	122,3	102,4
sabzavot	tonna	602	13425	600	14022	99,7	104,4
meva	tonna	381	2000	401	2004	105,2	100,2
Uzum	tonna	82	532	95	544	115,9	102,3
Go'sht	tonna		7329		7756		105,8
sut	tonna		37511		39354		104,9
tuxum	ming dona		19472		20781		106,7
baliq	tonna		126		128		101,6

* Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti malumotlari

15-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi (barcha turdagi xo'jaliklar buyicha, ts| ga)*

Ko'rsatkichlar	1991 y	1995 y	2000y	2015y	2017	2017 y 1991 y. nisbatan
Donli ekinlar jami	15,2	14,5	20,5	26,0	27,2	178,9
Paxta	22,5	20,7	16,1	19,8	20,5	91,1
Kartoshka	19,2	7,8	56,9	82,0	114,5	5,9 barobar
Sabzavot	86,8	68,6	96,3	212,1	213,6	2,4 barobar
Poliz	70,9	57,3	100,8	113,2	113,4	1,6 barobar
Meva	33,2	18,1	30,4	77,8	87,0	2,6 barobar
Uzum	28,7	24,5	57,4	84,0	84,1	3,5 barobar

* Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti malumotlari

15-jadvaldan 1991 yillarda dehqonchilik sohalari ichida asosiy etibor paxtachilikka qaratilganligi ko'rinadi. Sababi, poliz-sabzavot, meva va h.k. ekin turlari kam joyga ekilgan, hosildorlik ham kam bo'lgan.

16-jadval

Qishloq xo'jalig'i mahsulotlarini etishtirish
(xo'jaliklarning basrcha turlari bo'yicha)

Ko'rsat- kichlar	o'lchov birligi	2016 y.		2017 y.		%	
		ga.	tn	ga.	tn	ga.	tn
donli ekinlar	tonna	6592	18518	6949	20408	105,4	110,2
paxta	tonna	9294	18443	9417	19347	101,3	104,9
kartoshka	tonna	547	5107	421	5163	77,0	101,1
poliz	tonna	600	8060	734	8257	122,3	102,4
sabzavot	tonna	602	13425	600	14022	99,7	104,4
meva	tonna	381	2000	401	2004	105,2	100,2
uzum	tonna	82	532	95	544	115,9	102,3
go'sht	tonna		7329		7756		105,8
sut	tonna		37511		39354		104,9
tuxum	ming dona		19472		20781		106,7
baliq	tonna		126		128		101,6

* Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti ma'lumotlari

Shuningdek chorvachilik sohasi ham tumanda yaxshi rivojlangan. Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, xo'jaliklarda ishni to'g'ri hozirgi zamon talablariga mos ravishda tashkillashtirilishiga tasir etdi.

1990 yillardan 2017 yilgacha davrda qoramollarning, sigirlarning, qo'ylarning, otlarning bosh soni har yili har xil ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. Bunga sabab, xo'jalik boshqarish shakllarining va ularning xududlarining o'zgarib turishidir. Go'sht, sut etishtirish 2001 yilga nisbatan biroz ko'paygan. Go'sht etishtirish (tirik vaznda) 1991 yili 342 tonna, 2000 yilda 3524 t., 2005 yili esa bu kursatkich 4341 tonnani, 2017 yili 7756 t. tashkil qildi.

Sut etishtirib berish esa 1991 yili 3494 t., 2000 yili 10890 tonna, 2001 yili 10580 tonna, 2002 yili 10006 tonna, 2005 yili 112711 tonna, 2017 yil 39354 tonna etishtirilgan.

Tumanda parranda asrash va tovuq gushtini etishtirishga ham katta etibor qaratilgan. Parrandalarning soni 1991 yili 18906 tadan, 251515 taga etkazildi va ushbu yillarda parrandalar soni 13,5 marotabaga oshdi. Bularning hammasining tez surat bilan o'sishi ularga bulgan etiborning yaxshilanganligidadir. Ish bilarmon va tadbirkorlar bosh davlat texnologiyalaridan foydalanib parrandalarni tez ko'paytirish yo'llarini amalga oshirmoqdalar. Ko'proq chet el texnologiyalaridan foydalanib tez katta bo'ladigan parodadagi tovuqlar boqilmoqda va aholining go'shtga degan talabi qondirilmoqda.

Tuxum etishtirishda yillar davomida uzviy o'sish ko'rsatkichiga erishilgan. 1991 yili 691 ming dona, 2000 yili 1334 ming dona, 2003 yili 1350 ming dona, 2005 yilda 2511 ming dona, 2017 yilda 20781 dona tuxum etishtirilgan. Bu 1991 yilga nisbatan 30 barobarga o'sganini ko'rsatadi.

Chorvachilik – mamlakat qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarini maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi tumanda mehnat taqsimoti ijobiy hal etilishiga bevosita tasir etadi.

Tumanda yuqorida takidlaganimizdek chorvachilik rivojlangan sohalarning biri ekanligi va keyingi yillarda bu sohada sezilarli yutuqlarga erishilaetgani 17-jadvalda to'liq o'z ifodasini topgan. Yirik shoxli qoramollarning soni 1997 yilga nisbatan deyarli saqlab qolingana. Shundan sigirlarning qo'ylarning, otlarning bosh sonlari yuqori suratda o'sgan.

17-jadval

Tuman chorvachiligida qoramollarning bosh soni ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlari	1991	1995	2000	2016	2017	2017 yil % 2016 yilga nisbatan
Yirik shoxli qoramollar jami	41409	44009	46473	75188	76910	102,7
Shundan sigirlar	18178	20077	19260	20937	21493	108,7
Qo'y va echkilar	2878	4574	5852	35097	37597	104,9
Yilqilar	51	144	293	350	365	104,2
Parrandalar	18906	32147	61420	243415	251515	103,3

* Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti malumotlari

Yuqori da keltirilgan 17-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarning hammasida o'sish ko'rinib turibdi.

17-jadvalda ko'rsatilganidek 1991 yilga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 2005 yilga kelib 136,4 foizga o'sgan. Shundan sigirlar 1991 yilga nisbatan 132,2 foizga, quy va echkilarning bosh soni 7 marotaba, yilqilar bosh soni 6,8 marotabaga, parandalarning bosh soni ham yuqori surat bilan o'sib 1991 yilga nisbatan 551 foizga o'sgan. O'sish suratida uzviylik saqlangan. Yilqilar bosh sonida ham yuqori o'sish surati kuzatiladi.

Tumanda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'lami ha'm yildan-yilga ortip bormoqda (18-jadval).

18-jadval

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Kursatkichlar	Ulchov birligi	2016 y	2017 y	%
Gusht	tn.	7329	7756	105,8
Sut	tn.	37511	39354	104,9
Tuxum	ming dona	19472	20781	106,7
Baliq	tn.	126	128	101,6
qishloq xo'jalik korxonalarida				
Gusht	tn.	29	30	103,4
Sut	tn.	90	60	66,7
Tuxum	ming dona	22	7	31,8
Baliq	tn.	24	25	104,2
ah'olida				
Gusht	tn.	7090	7515	106,0
Sut	tn.	35998	37869	105,2
Tuxum	ming dona	18230	19524	107,1
Baliq	tn.	53	54	101,9
fermer xo'jaliklarida				
Gusht	tn.	210	211	100,5
Sut	tn.	1423	1425	100,1
Tuxum	ming dona	1220	1250	102,5
Baliq	tn.	49	49	100,0

* Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti ma'lumotlari

18-jadvaldan ko'rinib turganidek xo'jalik yuritish shakillarining ichida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish boyicha dehqon xo'jaliklarining yani aholining ulushi yuqoriligi malum bolmoqda, bundan qishloq xo'jalik korxonalari va fermer xo'jaliklarida chorvachilikga ixtisoslashganlarining soni kamligi, qolaversa mahsuldorligi past ekanligi ko'rinadi.

Shuningdek, tumanda pillachilik sohasiga ham etibor kuchli. 2005 yilda tumanning barcha xo'jaliklaridan 156,7 tonna pilla yig'ib olindi. Bu sohani kelajakda rivojlantirish yo'llari ishlab chiqilgan. Pillachilik asosida tumanda kichik ip yigiruv korxonalarini ochish istiqbollari bor.

Chorvachilik sohasini rivojlantirishda em, o't-hashaklarning o'rni o'zgacha. Ularsiz chorvachilik sohasining rivojlanishi bo'lmaydi. Tumanda chorvachilik uchun em-xashak ekinlarini etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Quyidagi 19-jadvaldan Xo'jayli tumanida etishtiriladigan em-xashak ko'rsatkichlarini ko'rishingiz mumkin.

19-jadval

Xo'jayli tumanida etishtiriladigan em-xashak ekin turlari buyicha
ko'rsatkichlar

	Em-xashak ekinlari	2015 yil		2017 yil	
		Ekin maydoni, (ga)	Umumiy mahsulot, (t)	Ekin maydoni, (ga)	Umumiy mahsulot, (t)
	Eski beda	724	6022	756	6734
	Yangi beda	75	450	87	543
	Silos uchun makka	720	6094	750	6875
	Don uchun makka	738	1682	745	1743
	Boshqa em xashak ekinlari	3586	33509	3712	35107

* Xo'jayli tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari pasporti malumotlari

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilsak, faqat eski bedadan boshqa em-hashak ekinlarining hammasining ekin maydoni va umumiy hosildorligi pasayganligini

ko'ramiz. Bunga so'ngi yillardagi xo'jaliklar tarkibidagi o'zgarishlar sabab bo'lmoqda. Lekin bu kursatkich boshqa rayonlarga nisbatan juda past emas.

Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun em-xashak etishtiriladigan maydonlarni kengaytirib, ekinlarni almashlab ekishni rivojlantirish lozim. Bunda em-xashak ekinlari ekiladigan maydonlarning suv taminotiga, meliorativ holatini yaxshilashga hamda organik va mineral o'g'itlardan talab darajasida foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Bu masalani hal etish uchun qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqariladigan tuyimli ozuqa moddalari talab darajasida olinishi, chorva mollariga shakllangan ozuqa ratsion asosida vaqtida berilishini ham tashkil etish zarur. Bu masalaning dolzarbligini hisobga olib, respublika hukumati xo'jaliklarga iqtisodiy jihatdan ko'maklashish yo'llarini, mexanizmlarini ishlab chiqqan. Jumladan, ozuq-ovqatni etishtirishni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, shu maqsadda chetdan moddiy-texnika resurslari keltirilsa, ular bojixona to'lovlaridan ozod etilishi va boshqa chora-tadbirlar belgilangan.

Bu jarayonda chet el investitsiyalarin jalb etilishiga alohida etibor berish zarur. Chunki hozirgi davrda bu masala juda sust echilmoqda.

Chorvachilik tarmoqlarining hozirgi kundagi rivojlanish darajasi talabni to'liq qondira olmaydi. Bu muammoni hal etish maqsadida tarmoqda huquqiy, tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshori zarur.

Yuqoridagi ko'rsatilgan masalalarning hal etilishi natijasida chorvachilik tarmoqlari rivojlanib, samaradorligi yuksalishi taminlanadi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun qabul qilgan Harakatlar strategiyasiga asosan Xojayli tumanida ha'm bir nechta agrosanoat sohalariga tegishli istiqbolli rejalar ishlab chiqildi (1-ilova).

Unga ko'ra 2017 iyuniga "Sifatli eksport Taxiatosh don" MChJ si tomonidan qovoqdan djem ishlab chiqarishni tashkil qilish korxonasini, 2018-yil dekabr oyida "Elit stars tekstil" MChJ si tashabbusi bilan ip kalava ishlab

chiqarishni korxonasi, 2018-yilning iyun oyigacha "Plutos Lapin" MChJ si tomonidan meva-sabzavotni qayta ishlashni (sok poroshogini) tashkil qilish korxanasini va go'shtni qayta ishlash va konserva tayyorlashni tashkil qilish (qo'yon go'shti konservasini) 2017-yil dekabr oyida "Hunarmand" uyushmasining tuman bo'limi tomonidan tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil qilish, 2021 yilning dekabriga qadar "Elit stars tekstil" MChJ si tomonidan ip gazlama ishlab chiqarishni yanada kengaytirishni tashkil qilish bo'yicha yirik loyihalar ishlab chiqilgan va ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi uchun davlat tomonidan kreditlar ajratilib berilmoqda. Ushbu korxonalar ishga tushirilsa va mahsulotlari eksportga chiqarilsa tuman aholisi nafaqat ish bilan taminlanadi, ularning daromat manbayiga ham aylanadi.

X U L O S A

Respublika iqtisodiyotini mustahkamlash, aholini istemol mollari bilan taminlashdek siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifani hal etishda mamlakat agrosanoat majmuasining ahamiyati katta. Shuni etiborga olgan holda agrosanoat kompleksini oqilona shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda kompleks tarkibini to'g'ri shakllantirishga alohida etibor berish lozim.

Agrosanoat kompleksining markaziy bo'g'ini qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Uni rivojlantirish uchun barcha turdagi vositalarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni, har xil xizmatlar bajaruvchi sohalarni hamda shu tarmoqda etishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlovchi va ularni talabini qondirish maqsadida istemolchilarga sifatli qilib etkazib beruvchi tarmoqlarni o'zaro bog'liq holda maqsadga muvofiq tashkil etish, joylashtirish zarur.

Agrosanoat kompleksining iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligini aniqlash maqsadida tegishli ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Bunda ularning maqsad va vazifalarini etiborga olish kerak. Agrosanoat kompleksini rivojlantirish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini taminlash bilan birga xalq istemoli mollari hajmining ko'payishini, ularning sifati yaxshilanishini taminlaydi.

Xo'jayli tumani agrosanoat komplekslarini rivojlantirish masalalari bo'yicha magistrlik dissertatsiyaga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda qo'yidagilar bajarildi:

- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishining tarixi o'rganildi;
- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tabiiy sharoit va resurslarning tasiri o'rganildi;
- Tuman agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasir ko'rsatuvchi faktorlarni aniqlandi;

- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishda tuman aholisining, mehnat resurslarining roli aniqlandi;
- Tumanda agrosanoat komplekslarining joylashishi o'rganildi;
- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishning ayrim muammolari aniqlandi;
- Tuman agrosanoat komplekslari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechish yo'llari belgilandi.

Ana shu o'rganilgan vazifalardan kelib chiqib tuman xududida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi bir qancha sanoat korxonalarini qurish imkoniyatlari borligi aniqlandi. Masalan, tumanda etishtiriladigan sabzavot, poliz, meva maxsulotlaridan yirik har bir xo'jalik xududida ularni konservalovchi mini korxonalar qo'rish maqsadga loyiq. Bu bilan tuman aholisining mehnat resurslarining bandligi muammosini va aholining oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirish ishlari alamga oshadi.

Tuman respublikada yirik agrar tuman hisoblanib, uning xududida 21 paxtachilik, bitta chorvachilik qishloq xo'jaligi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Eng asosiy qishloq xo'jalik sohasi bu paxtachilik. 2017 yilda paxtachilik uchun 9417 gektardan ortiq yer maydonlari ajratilgan bo'lib, 19347 tonna paxta xom ashyosi tayyorlandi, hosildorlik 20,5 ts/ga tashkil etdi. Tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi paxta tozalash zavodi, tikuv-yigiruv fabrikasi va 15 dan ortiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, tuman hududidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni yangi texnologiya asoslarida ishlaydigan texnikalar bilan jihozlash hozirgi kunning talab darajasidagi eng dolzarb muammolardir. Bu muammolarni echish uchun tuman byudjetining etishmovchiligini hisobga olgan holda chet el investitsiyalarini va chet el ilg'or texnologiyalarini ko'proq jalb etish kerak.

Tumanda baliqchilikni rivojlantirish uchun ham imkoniyatlar bor. Uni yaxshi yo'lga qo'ysalar, baliq mahsulotlarini etishtirish sahosining ham rivojlanish istiqboli kelib chiqadi.

Tuman agrosanoat komplekslarining muammolarini hozirgi zamon talabi darajasida hal etish uchun:

- agrosanoat kompleksi tarkibidagi qishloq xo'jaligini va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni arzonroq, sifatli unimdor ishlab chiqarish vositalari bilan taminlashlari;
- qishloq xo'jalik tarmoqlari mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalangan holda talabni qondiradigan miqdorda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishlari;
- qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini taminlash maqsadida ularga turli xildagi xizmatlarni vaqtida, sifatli va arzon narxlarda amalga oshirish, jumladan ekinlarni suv bilan, texnikalar, kimyoviy vositalar, o'g'itlar, ozuqa-yem, yoqilg'i, yonilg'ilar bilan, texnikalarni tamirlash va xizmatlar ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlarni nobud etmasdan vaqtida, sifatli tayyorlab, qayta ishlab, tayyor mahsulotlar istemolchilarga yetkazib berilishini taminlash lozim. Bunda mahsulotlarni sotib olib, qayta ishlash korxonalari ko'lamini rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Umuman agrosanoat sohasini yana ham yaxshi rivojlantirish ushun qishloqqa sanoatni olib borish kerak. Shu bilan birga, tarmoqdagi aholining ish bilan taminlanishi, real daromad olishi uchun katta imkoniyat yaratiladi. Buning uchun Xo'jayli tumanida mehnat resurslarining yetarlicha ekanligini ko'rsatish mumkin;
- respublika agrosanoat kompleksi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi barcha o'zaro munosabatlarni (baholar, soliqlar, to'lovlar) takomillashtirishga va ularni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlarni hamma

bo'g'inlarda ishlab chiqib, ularning hayotga tatbiq etilishini taminlashga erishish kerak. Mana shu chora-tadbirlar va muammoni echish yo'llaridan Xo'jayli tumani agrosanoat kompleksining muammolarini hal qilishda kengdan foydalanish kerak.

Respublikamiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun qabul qilgan Harakatlar strategiyasiga asosan Xojayli tumanida agrosanoat kompleksini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan chora tadbirlarning bajarilishiga ham katta e'tibor qaratilishi, ichki imkoniyatlardan va tashqaridan kiritiladigan investiciyalardan to'g'ri foydalana bilash zarur.

Jumladan, 2017 iyuniga "Sifatli eksport Taxiatosh don" MChJ si tomonidan qovoqdan djem ishlab chiqarishni tashkil qilish korxonasining 2017-yil dekabr oyida "Hunarmand" uyushmasining tuman bo'limi tomonidan tayyor tikuv mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil qilish korxonalarining ishga qo'shilishi buning dalilidir. Bundan tasqari, 2018-yil dekabr oyida "Elit stars tekstil" MChJ si tashabbusi bilan ip kalava ishlab chiqarishni korxonasi, 2018-yilning iyun oyigacha "Plutos Lapin" MChJ si tomonidan meva-sabzavotni qayta ishlashni (sok poroshogini) tashkil qilish korxanasini va go'shtni qayta ishlash va konserva tayyorlashni tashkil qilish (qo'yon go'shti konservasini) 2021 yilning dekabriga qadar "Elit stars tekstil" MChJ si tomonidan ip gazlama ishlab chiqarishni yanada kengaytirishni tashkil qilish bo'yicha yirik loyihalar ishlab chiqilgan va ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi uchun davlat tomonidan kreditlar ajratilib berilmoqda. Ushbu korxonalar ishga tushirilsa va mahsulotlari eksportga chiqarilsa tuman aholisi nafaqat ish bilan taminlanadi, ularning daromat manbayiga ham aylanadi.

Xo'jayli tumanida sanoatni rivojlantirishda qishloq xo'jaligidan boshqa shiysha ishlab chiqarishning roli ham katta. Respublikada shiysha idishlarni tayyorlashda yagona tumanlardan biri hisoblanadi.

Tuman asosan paxta sanoati mahsulotlari, oziq-ovqat mahsuloti va boshqalarni eksport qiladi. Mashina va asbob-uskuna, kimyo tolasi va pryaja, oziq-ovqat mollari, qora va rangli metallar va boshqa mahsulotlar importdan keltiriladi.

Hozirgi vaqtda asosiy vazifa Prezidentimiz taqidlab o'tganidek qishloq joylarda qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan bir qatorda kichik korxonalarni, yoki agrosanoat tarmoqlarini qurish lozim.

Shuningdek, agrosanoat kompleksini rivojlantirish uchun kelajakda dehqonchilikda suvni kam talab qiluvchi ekinlarni ekish, intensiv texnologiyadan oqilona foydalanish natijasida aholining turmush tarzini yaxshilashga yul ochish maqsadga muvofiq.

Kelajakda agrosanoat komplekslarini rivojlantirish uchun qishloqlarda usbu majmua bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish, ular o'rtasida munosabatlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xo'jayli tuman iqtisodiy-geografik tomondan tabiiy-geografik tomondan qo'lay o'rinda joylashgan. Tumanning tabiiy resurslari, sharoitlari, uning iqtisodiy tomondan rivojlanishiga keng yo'l ochadi.

Uning agrosanoat komplekslarining bundan keyingi rivojlanishi uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega.

Adabiyotlar ro'yhati

I. Normativ hujjatlar va asosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегиси тўғрисида» ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 4 мартдаги “2015-2019 йилларда ишлаб чиқаришни таркибий ўзгартириш, модернизация қилиш ва диверсификация қилишни таъминлаш бўйича чора-тадбирлар Дастури тўғрисида” ги ПФ-4707-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 сентябрдаги “Қишлоқ жойларда уй-жойларни лойиҳалаштиришни такомиллаштириш ва қурилишни яхшилаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-1403-сонли Қарори
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 19 апрелдаги “2013-2017 йилларда Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини янада яхшилаш ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш тўғрисида» ги ПҚ-1958-сонли Қарори
6. “Ўзбекистон Республикаси аҳоли пунктларининг маъмурий-ҳудудий тузилишини такомиллаштиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг қарори. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 36-Qarori bilan 2015-yil 2-martda tasdiqlangan “Magistratura haqida”gi qonuni T., 2015
8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамыз. - Тошкент, «Ўзбекистон» НМИУ, 2017
9. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. - Тошкент, «Ўзбекистон» НМИУ, 2017

10. Ўзбекистон Республикасининг «Қишлоқ хўжалиги кооперативи (ширкат хўжалиги) тўғрисида»ги қонуни. «Халқ сўзи», 1998 йил, 6 июнь.

11. Ўзбекистон Республикасининг «Кооперация тўғрисида»ги қонуни. Ўзбекистон Республикаси тадбиркорлик тўғрисидаги қонун ҳужжатлари. Тошкент, «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» №1, 1999.

II. Monografiya, darsliklar, to'plamlar:

1. Абдуғаниев А., Абдуғаниев А.А. «Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти», Тошкент., ТДИУ, 2004.

2. Абдуғаниев А. Фермер хўжаликларини ривожлантириш ва самарадорлигини юксалтириш йўллари. «Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги» журнали, №4, 2002.

3. Ахмедов, Файзуллаева А. Юнусова Р.Т. Қишлоқ аҳолисининг талаб ва эҳтиёжларини ўрганиш. Тошкент, «Мехнат», 1989.

4. Деҳқон ва фермер хўжаликлари фаолиятини режалаштириш. Тошкент., «Шарқ», 2002

5. Каримов И.А. Қишлоқ хўжалиги тараққиёти тўқин ҳаёт манбаи. -Тошкент., «Ўзбекистон», 1998

6. . Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йуллари ва чоралари.- Т.: Ўзбекистон, 2009.

7. 11.Каримов И.А. Асосий вазифамиз — Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. - Т.: Ўзбекистон, 2010

8. Каюмов Ф.К., Абдуллаев Р.А. Арендный подряд в сельском хозяйстве. Ташкент., «Мехнат», 1989

9. Қурбонов Ш. Б. Кичик ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий географияси. – Т.: “MUMTOZ SO’Z”, 2013

10. Курбаниязов А.Б. “Формирование и развитие трудового потенциала в Каракалпакии”. Нукус, Изд. “Каракалпакстан”, 1991, 191 с.

11. Матмуратов Дж. Агроклиматические условия Северо-Западного Узбекистана. - Нукус, 1989.
12. Набиев Э., Қаямов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т.: Университет, 2000.
13. Новый взгляд на экономическую географию. Доклад о мировом развитии. Обзор 2009. – Вашингтон, Всемирный банк, 2008.
14. Рафиков А.А., Тетюхин Ф. Снижение уровня Аральского моря и изменения природных условий низовьев Аму-Дарьи. - Ташкент., 1981.
15. Рзаев К.Р. “Рыночные проблемы сельской экономики Каракалпакстана”. Нукус, “Каракалпакстан”, 1993, 175 с.
16. Рўзиев А., Абиркулов Қ. Ўзбекистон иқтисодий географияси. – Т.: Шарқ, 2001.
17. Саманов Ж.С. ва бошқалар. Геология и полезные ископаемые Каракалпакстана. - Ташкент. - 1973.
18. Солиев А.С., Аҳмедов Э., Махамдалиев Р.Й. ва б. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2003.
19. Soliev A., Axmedov E., Maxamadaliyev R. va b. “Mintaqaviy iqtisodiyot”, T. Universitet, 2003.
20. Тўхлиев Н. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
21. Tojjeva Z.N. “Iqtisodiy va demografik statistika”. O’quv qo’llanma. T., 2002.
22. Йўлдашев З. Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалигини устувор ривожлантириш. Тошкент, 1996.
23. Йўлдашев З. Мустақиллик шароитида Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ва иқтисодиёти. Тошкент, 1992.
24. Ходжаева Г.А., Курбанбаев Б. Хо’jayli tumanining agrosanoat majmuining shakllanishida qishloq xo’jaligining ahamiyati.// Магистрантларнинг илмий меҳнатлари туплами, Нукус, 2017, 56-59 б. Муаллиф шахсан ўзи иштирок этган

25. Ходжаева Г.А., Алланазаров К., Курбанбаев Б. Миграционная ситуация в сельских районах Каракалпакстана.// Қуйи Амударё минтақасида табиий, ижтимоий ва экологик жараёнлар ривожланишининг замонавий жиҳатлари номли республика илмий-амалий конференция материаллари. Урганч, 14-ноябрь, 2017. 1-жилд, 99-101 б. Муаллиф шахсан ўзи иштирок этган.
26. Хўжайли туман ҳокимияти статистика бошқармасининг статистик маълумотлари. 1992-2017 йй.
27. Хусанов Р.Х. ва бошқалар. «Агросаноат комплекси иқтисодиёти» Тошкент., 2003
28. Қишлоқ жойлар демографияси. Проф. А.С.Солиев таҳрири остида.-Т., 2005.
29. Қишлоқ тараққиёти ва фаровонлиги. (Амалий қўлланма).-Т.: «Илм Зиё», 2009
30. “Qishloq joylari demografiyasi”. Mualliflar kollektivi. T., 2005, 139 b.
31. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
32. Ўзбекистон Республикаси Қонуни «Фермер хўжалиги тўғрисида»
33. Ўзбекистон Республикасининг «Қишлоқ хўжалиги кооперативи (ширкат хўжалиги) тўғрисида»ги қонуни. «Халқ сўзи», 1998 йил, 6 июнь.
34. Ўзбекистон Республикасининг «Кооперация тўғрисида»ги қонуни. Ўзбекистон Республикаси тадбиркорлик туғрисидаги қонун ҳужжатлари. Тошкент, «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» №1, 1999.

III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

1. Алиакберова Н.М. “Рождаемость в селской семье / Демография семьи. Сб. науч.трудов”, Н 604 ТашГУ, Ташкент, 1980 стр.15–26
2. Итоги Всесоюзной переписи населения 1970. /В 7–томах. М., "Статистика" 1974
3. Итоги Всесоюзной переписи населения 1989. (В 10–томах) М., 1990
4. Sadullaev A. “Orol bo'yidagi ekologik halokatning ijtimoiy–demografik oqibatlari. // O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, “Universitet”, 1992, 79–90 b.
5. Таджимов Т.Т. “Экономико–географические районы Каракалпакской АССР”. / Научн. тр. ТашГУ. Выпуск 213. География. Ташкент, 1963, с.58–71
6. Умаров Е.К., Ходжаева Г. “Демографические факторы территориальной организации производства в районах Южного Приаралья”. // Журнал «Актуальные проблемы современной науки», N4, Москва, 2003. 151–153 б.
7. O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. Qomuslar bosh taxririya. – Toshkent, 1997. – 654 b.
8. Xodjaeva G.A., Umarov E.K. “Orol fojiasi va Qoraqolpog'istonning tabiiy–iqtisodiy zonalari bo'yicha aholini hududiy joylashtirish masalalari”. // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti 18–tom, II qism, Toshkent, 1997, 94–97 b.

IV. Ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferatlari:

1. Айтжанов Б.У. «Селекция засухоустойчивых сортов хлопчатника и подсолнечника на базе различных видов гибридизации». Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.с-х.н., Ташкент, 2016.

V.Internet saytlari:

1. [http:// www.demoscope.ru/](http://www.demoscope.ru/)
2. [http:// www.population.org/](http://www.population.org/)
3. [http:// www.Ziyonet.uz/](http://www.Ziyonet.uz/)
4. <http://www.kyrsak.ra/DownloadFiles.htm>
5. [http: //www. lex.uz.](http://www.lex.uz)

Хо'jayli tumanining 2017-2021 yillarda agrosanoat sohalarining istiqbolli rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilgan loyihalar to'g'risida

MA'LUMOT

№	Лойиҳанинг номи	Лойиҳанинг ташаббускорлари	Ишга тушириш муддати (ой)	Йиллик ишлаб чиқариш қуввати (лойиҳавий қуввати)				Лойиҳанинг умумий қиймати, млн.сўм	Шу жумладан молиялаштириш манбалари		Хорижий инвестициялар ва кредитлар	Хорижий ҳамкор / кредит берувчи	Янги иш ўринлари
				ўлчов бирлиги	Натурал қийматда	млн. сўм	Экспортдаги улуши, %		ўз маблағари	Тижорат банклари кредитлари			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
	Жами					52760,0		96988,0	14633,0	82355,0			1113
	<i>шу жумладан:</i>												
	янги лойиҳалар					49310		91868,0	12938,0	78930,0			949
	модернизация ва кенгайтириш					3450		5120,0	1695,0	3425,0			164
	1. Озиқ-овқат саноати соҳасидаги лойиҳалар												
	Мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш саноати					4450		2010	380	1630			40
	янги лойиҳалар					4450		2010	380	1630			40
1	мева-сабзавотни қайта ишлашни (сок порошоги) ташкил қилиш	"Плутос Лапин" МЧЖ	01.11. 2017	тонн	300	450		680	180	500		Саноат-курилиш банк	20
2	ковокдан джем ишлаб чиқаришни ташкил қилиш	"Сифатли экспорт Тахиятош дон" МЧЖ	01.07. 2017	минг шартли банка	1000	4000		1330	200	1130		Миллий банк	20

	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>												
	Гўшт ва гўшт маҳсулотлари саноати					5000		500	100	400			4
	<i>янги лойиҳалар</i>					5000		500	100	400			4
1	гўштни қайта ишлашни ташкил қилиш (кўён гўшти консерваси)	"Плутос Лапин" МЧЖ	01.06. 2018	минг шартли банка	1000	5000		500	100	400		Микрокредит банк	4
	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>					0		0	0	0			0
	Сут ва сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш саноати					0		0	0	0			0
	<i>янги лойиҳалар</i>					0		0	0	0			0
	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>					0		0	0	0			0
	Қандолат ва нон маҳсулотлари саноати					250		400	100	300			4
	<i>янги лойиҳалар</i>					0		0	0	0			0
	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>					250		400	100	300			4
1	нон маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кенгайтириш	"Иссик нон Хужайли" ХК	01.10. 2018	тн	100	250		400	100	300		Миллий банк	4
	Бошқалар					0		0	0	0			0
	<i>янги лойиҳалар</i>					0		0	0	0			0
	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>					0		0	0	0			0
	2. Нозиқ-овқат саноати соҳасидаги лойиҳалар												
	Тўқимачилик ва тикувчилик-трикотаж саноати					30000		83600	11300	72300			750

	<i>янги лойиҳалар</i>					30000		83600	11300	72300			750
1	ип калава ишлаб чиқаришни кенгайтириш	"Элит старс текстиль" МЧЖ	01.12. 2018	тн	5000	18000	0	47000	11000	36000	0	Саноат- курили ш банк	350
2	ип газлама ишлаб чиқаришни ташкил қилиш	"Элит старс текстиль" МЧЖ	01.12. 2021	млн м	2100	10500	0	36300	0	36300	0	Саноат- курили ш банк	150
3	тайёр тикув маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ташкил қилиш	"Хунарманд" уюшмасининг туман бўлими	01.12. 2017	минг дона	370	1500	0	300	300	0	0	Халқ банк	250
	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>					0		0	0	0	0		0
	Чарм-пойабзал саноати					0		0	0	0			0
	<i>янги лойиҳалар</i>					0		0	0	0			0
	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>					0		0	0	0			0
	Фармацевтика саноати					8940		4700	900	3800			130
	<i>янги лойиҳалар</i>					8940		4700	900	3800			130
1	қизилмия илдизидан экстракт ишлаб чиқаришни ташкил қилиш	"Эколайн Руут" МЧЖ	01.07. 2017	тн	240	4320	100	3200	200	3000		Саноат- курили ш банк	70
2	қизилмия илдизини қайта ишлаш (слайс)	"Хожели солодка" МЧЖ	01.08. 2017	тн	200	300	100	500	500			Хамкор банк	20
3	қизилмия илдизидан экстракт ишлаб чиқаришни ташкил қилиш	"Зулхумор систем солодка" МЧЖ	01.09. 2021	тн	240	4320	100	1000	200	800		Саноат- курили ш банк	40

	модернизация ва кенгайтириш					0		0	0	0	0		0
	Бошқа турдаги ноозик овқат саноати					0		0	0	0	0		0
	янги лойиҳалар					0		0	0	0	0		0
	модернизация ва кенгайтириш					0		0	0	0	0		0
	3. Қурилиш материаллари саноати					2120		2958	1458	1500	0		115
	янги лойиҳалар					320		58	58	0	0		5
1	пластик эшик ва ойна ромлари ишлаб чиқаришни ташкил қилиш	"Профбек Хужайли" МЧЖ	01.06. 2017	минг м2	1	320		58	58	0		Халк банк	5
	модернизация ва кенгайтириш					1800		2900	1400	1500	0		110
1	гишт ишлаб чиқаришни кенгайтириш	"Хожели гербиш заводи" МЧЖ	01.12. 2017	млн дона	5	1500		2500	1000	1500		Ипотек а банк	50
2	гишт ишлаб чиқаришни кенгайтириш	"Регионал индустриал инвест" МЧЖ	01.07. 2017	млн дона	1	300		400	400	0		Хамкор банк	60
	4. Кимё ва электро-техника саноати					0		0	0	0	0		0
	янги лойиҳалар					0		0	0	0	0		0
	модернизация ва кенгайтириш					0		0	0	0	0		0
	5. Бошқалар					2000		2820	395	2425	0		70
	янги лойиҳалар					600		1000	200	800	0		20
1	пластмассадан хўжалик буюмлари ишлаб чиқаришни ташкил қилиш	"Нурбек оқ олтин" МЧЖ	01.11. 2017	минг дона	300	600	0	1000	200	800	0		20

	<i>модернизация ва кенгайтириш</i>					1400		1820	195	1625	0		50
1	аккумулятор ишлаб чиқаришни кенгайтириш	"Нурбек оқ олтин" МЧЖ	01.10. 2017	дона	2500	500	0	1650	150	1500	0	Саноат- курили ш банк	40
2	мебел ишлаб чиқаришни кенгайтириш	"Сейт мебел Хожели" ОК	01.09. 2017	дона	300	450	0	40	15	25	0	Микрок редит банк	5
3	мебел ишлаб чиқаришни кенгайтириш	"Ойбек уста мебел" ОК	01.09. 2017	дона	300	450	0	130	30	100	0	Микрок редит банк	5